

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА
ЎРТА

МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

Миллий ғоя, маънавият
асослари ва ҳуқуқ таълими йўналиши
битирувчиси

Ражабова Мархабонинг

Битирув малақавий иши

МАВЗУ: «Демократик сайловларда
сиёсий партияларнинг ўрни»

Илмий раҳбар:

Доц. Болтаев А.А

“Миллий ғоя, ҳуқуқ ва маънавият асослари”
кафедра йиғилишида муҳокама қилиниб, ҳимояга

“ 12 ” май 2015 й. тавсия этилган.
Кафедра мудири *С. Раупов* доц. Раупов С.С

БУХОРО – 2015йил

Mavzu:Demokratik saylovlarda siyosiy partiyalarning o`rni.

Reja:

I-bob.Saylovlar va siyosiy partiyalar.

1.1. Saylov tushunchasi va uning mohiyati.

1.2.Siyosiy partiyalar faoliyatida saylovning mohiyati va ahamiyati.

II-bob. O`zbekiston Respublikasida demokratik saylovlar va siyosiy partiyalar.

2.1.O`zbekistonda demokratik saylovlarning huquqiy asosi.

2.2.O`zbekistonda ko`ppartiyaviylik va saylovlar.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikdan so'ng jamiyatimizning turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida erishayotgan marra va yutuqlarimiz eng avvalo milliy davlatchiligimizni mustahkamlash, jamiyat hayotini demokratik an'ana va qadriyatlar bilan yanada boyitib borish orqali xalqimizga munosib turmush darajasini yaratish va ertangi kunga katta umidlar bilan qadam qo'yish imkonini bermocda. Binobarin, jamiyatni yanada demokratlashtirish, boshqaruvni yangilash jarayonlariga daxldor masalalar izchil va bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida yurtboshimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida davlat qurilishi va boshqaruv tizimini rivojlantirishda, xususan qonunchilik hokimiyatining roli va ta'sirini kuchaytirish, ijro etuvchi hokimiyat organlari tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, qonunlar va hukumat qarorlarini bajarish mexanizmi qanday yo'lga qo'yilganligi, demokratik usullardan foydalanish, siyosiy partiyalarning faolligini oshirish hamda jamoatchilik nazorati kabi masalalar markaziy o'rinni egallab kelmoqda.

Har bir davlatni faqat iqtisodiy jihatdangina rivojlanishi uning dunyo hamjamiyatida tutgan o'rnini belgilamaydi. Shuning uchun ham o'z oldiga fuqarolik jamiyati barpo etishni maqsad qilib qo'ygan mamlakatlar siyosiy tizimni demokratik prinsiplar asosida shakllantirishlari tabiiy holdir. Shu jihatdan olganda mamlakatimizda siyosiy tizimni demokratlashtirish jamiyatimiz taraqqiyoti hozirgi bosqichining dolzarb yo'nalishidir.

“Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to'g'risida”gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi, hech shubhasiz, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish borasida asosiy va hal etuvchi rol o'ynadi...

Qabul qilingan ushbu huquqiy mexanizmlar siyosiy partiyalarning mamlakat parlamenti faoliyatini tashkil etishda, shuningdek, vakillik va ijro hokimiyati organlarini shakllantirish, ularning faoliyatini nazorat qilishdagi roli va

ahamiyatini tubdan kuchaytirdi”¹.

Xalqimizning faolligi ularning saylovlardagi ishtiroki va mamlakatimizdagi mavjud siyosiy partiyalar va harakatlar faoliyati bilan bevosita bog`liq. Mamlakatimiz rahbari “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda” nomli ma`ruzasida siyosiy hayotni erkinlashtirish masalasiga to`xtalib: “Siyosiy sohani erkinlashtirish borasida: avvalambor, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o`rtasida muvozanatni ta`minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur”², -deb ta`kidlagan edi.

Istiqlolimizning ilk kunlaridan boshlab, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov boshchiligida eski mafkuradan voz kechib, ma`naviy yangilanishga va xalqimiz ongiga milliy istiqlol g`oyasini singdirishga qaratilgan siyosat amalga oshirib kelinmoqda. O`zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jarayonida saylovlarning ahamiyati nihoyatda muhim bo`lib, saylovlar natijasida mamlakat fuqarolarining davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki ta`minlanadi. Bu esa, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligini ifoda etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalari qatori demokratik saylov tizimini yanada rivojlantirish sohasida ham yurtimizda siyosiy barqarorlik, ijtimoiy totuvlik, iqtisodiy taraqqiyot, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta`minlash bilan bog`liq keng qamrovli islohot va modernizatsiyalash jarayonlari davom etmoqda. Bu jarayonlar “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chukurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da Yurtboshimiz tomonidan belgilab berilganidek, erkin saylov va o`z xohish-irodasini erkin bildirish prinsiplari, birinchi navbatda, har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo`yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi va u mamlakatimizda amalda bo`lgan huquqiy normalarning nechog`lik demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy

1.Karimov I.A.. O`zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`li. T.: O`zbekiston, 2007,

davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lgan o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir.

Siyosiy partiyalar o'tkazilayotgan saylovlardagi faol ishtiroki bilan saylovchilar korpusining yanada ko'proq qismini o'ziga jalb etmoqda. Natijada, fuqarolarning saylov huquqi va saylov jarayoniga oid tushunchalarni o'zlashtirishga bo'lgan intilishi kuchaydi. Shu jihatdan olganda, elektoratning siyosiy-huquqiy ongi ham yuksalib, ularning ushbu jarayonlardagi ishtiroki kengaymoqda. Siyosiy partiyalar aholining siyosiy-huquqiy madaniyati va faolligini oshirish, ularning davlat siyosatini tashkil etish va boshqarishdagi ishtirokini ta'minlash orqali davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'taydi. Siyosiy partiyalar tomonidan mazkur vazifalarni amalga oshirishda davlat hokimiyati organlariga bo'ladigan saylovlar muhim o'rin tutadi. Chunki saylovlar orqali siyosiy partiyalar xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai bo'lishiga ko'maklashadilar, ijtimoiy hayotning siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishiga hissa qo'shadilar, eng muhimi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishdek konstitutsiyaviy huquqlari ro'yobga chiqishida muhim siyosiy vosita bo'lib xizmat qiladilar. Siyosiy partiyalar fuqarolarimizning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining xohish-irodasini ifoda etish, ularning markazda va joylarda davlat hokimiyatini shakllantirish masalalarida bevosita ishtirok etishini ta'minlash, fuqarolar tashabbusini shakllantirish, odamlarning ijtimoiy faolligini oshirish, turmushimizning ko'pgina dolzarb muammolarini hal etishda muhim siyosiy kuch hisoblanadi.

Siyosiy partiyalarsiz mamlakatimizda vakillik demokratiyasini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, aynan partiyalar orqali fuqarolar o'z vakillarining jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshiradilar. Siyosiy partiyalar demokratiyaning eng ta'sirchan mexanizmi bo'lgan saylovlar hisobidan muayyan ijtimoiy toifa yoki guruhning manfaatini ifoda etish bo'yicha dasturini amalga oshirish va o'z maqsadiga etish imkoniga ega bo'ladi. Bunday imkoniyatga

ega bo'lish uchun esa, har qaysi partiyaning o'z elektorati-uni qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy qatlam bo'lishi lozim. Agar shunday bo'lmasa, bu partiya haqiqiy siyosiy kuch bo'la olmaydi. Mamlakatimiz ikki palatali parlamentga o'tganidan so'ng saylov tizimi o'zgardi, chunki parlamentning quyi palatasi doimiy ishlaydigan bo'lib, u professionallardan tashkil topdi. Bundan kelib chiqqan holda nafaqat saylov tizimining tartibi, balki mohiyati ham o'zgardi. Bu esa, amalda ko'ppartiyaviy tizim qaror topishiga kuchli turtki bermoqda. 2014 yil dekabrda bo'lib o'tgan saylov natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, har bir partiya quyi palatada imkoni boricha ko'proq o'rin egallashga harakat qildi. Aniq maqsad, raqobat muhiti yuzaga kelib, ijtimoiy-siyosiy hayotga kuchliroq ta'sir ko'rsatishga, o'z mafkurasi, maqsad va muddaolarini xalqqa tushunarli tarzda yetkazishga intilish kuchayib bormoqda. Siyosiy partiyalarning rolini oshirish jarayoniga katta ahamiyat berilib, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlardagi o'рни va mas'uliyati yuksalib bormoqda. Mustaqillik yillarida qabul qilingan, xalqaro andozalarga javob beradigan huquqiy asoslar siyosiy partiyalarning keng ko'lamda ijtimoiy-siyosiy faoliyat yuritishini ta'minladi, ularning jamiyatimizdagi o'рни, nufuzi va mavqeini, vakolatlarini yanada kengaytirish va faoliyati samarasini oshirish borasida yangi imkoniyatlar ochib berdi. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlari o'rtasida o'zaro mutanosiblik va muvozanatni saqlash bo'yicha samarali tizim yo'lga qo'yildi. Uning asosiy ijrochisi bevosita siyosiy partiyalar ekanligi qonunda mustahkamlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, “siyosiy partiya” va “saylov” tushunchalari o'zaro bir-biriga bog'liq, bir-birini taqozo qiladigan tushunchalardir. Chunki, siyosiy partiyalar aynan saylovlar orqali o'z tarafdorlarini aniqlaydi, kim unga ovoz beryapti, kim uning g'oya va dasturlarini qo'llab-quvvatlayapti - bularning barchasini amalda ko'rishga muvaffaq bo'ladi. Siyosiy partiyalarning fuqarolarni o'z dasturiy g'oyalariga ishontira olgani, kimning manfaatlarini ifoda etgani, shu bilan birga, kimning ularga ergashayotgani, kimlar ishonch bildirgani faqat saylov natijalariga ko'ra ayon bo'ladi. Aynan saylov paytida siyosiy partiyalar o'zlarining asosiy va ustuvor qarashlari islohotlarni qanday amalga

oshirish borasidagi g'oyalarini ilgari suradilar.

6

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Biz tanlagan mavzu yaxlit, ilmiy manbalar asosida hozirga qadar chuqur o'rganilmagan. BMIda ushbu mavzuni tadqiq qilishda eng avvalo I.A.Karimovning O'zbekistonda siyosiy partiyalar, ularning faoliyati, Oliy Majlisga va Prezidentlik saylovlarida ularning ishtiroki, mamlakat siyosiy hayotida partiyalarning o'rnini haqida bildirilgan fikrlari aks etgan asarlari, nutqlari¹, ikkinchidan, mustaqillik yillarida qabul qilingan qonunlar² hamda OAV nashr qilingan ma'lumotlar, turli yillarda chop etilgan adabiyotlarda siyosiy partiyalar, ularning saylovlarda ishtiroki, xalqimiz hayotida partiyalarning tutgan o'rniga bag'ishlab mutaxassislar fikrlari bayon etilgan asarlardan³ foydalanishga harakat qildik.

1.Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild.-T.: O'zbekiston, 1996; Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild.-T.: O'zbekiston, 2000; Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.-T.: O'zbekiston, 1996; Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild.-T.: O'zbekiston, 1996; Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild.-T.: O'zbekiston, 1997; Ma'naviy yuksalish yo'lidan. - T.: O'zbekiston, 1998; Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild., - T.: O'zbekiston, 1994; Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. 7-jild.-T.: O'zbekiston, 1999; Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998; Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 8-jild.-T.: O'zbekiston, 2000; Barkamol avlod-o'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 6-jild.-T.: O'zbekiston, 1997; Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bogliq.-T.: O'zbekiston, 2004; Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O'zbekiston, 2005; Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008.

2.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2013; "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonun.(1991 yil 18 noyabr); "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonun (yangi tahriri, 2003 yil 29 avgust); "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonun (1994 yil 5 may); "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun (1994 yil 5 may); "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi qonun (1998 yil 30 aprel); O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi qonun (2004 yil 29 aprel); O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyatining vakillik organlariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining navbatdagi saylovi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni (2012 yil 23 mart) .

3.I.Bekov.,K.Hamidov.Saylov va siyosiy partiyalar.-T.:O'zbekiston, 2014; E.Kanyazov., Sh.Zulfiqorov., O.Turg'unov.O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi va saylov qonunchiligi.-T.: O'zbekiston, 2014; Sh.X.Fayziev.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi: savollar va javoblar.-T.:O'zbekiston, 2007; Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari.-T.: Sharq, 1996: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi saylov komissiyalari raislari uchun eslatmalar.-T.; O'zbekiston, 2014;J.Boltayev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi: ahamiyati, tashkiliy-huquqiy asoslari.//Buxoronoma, 2015 yil 11 fevral.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning **maqsadi** demokratik saylovlarda siyosiy partiyalarning o`rni masalasini o`rganishdan iborat. Buning uchun quyidagi **vazifalarni** amalga oshirish nazarda tutiladi:

- O`zbekistonda saylov tizimi va uning mohiyatini ochib berish;
- Siyosiy partiyalar faoliyatida saylovning mohiyati va ahamiyatini ko`rsatib berish;
- O`zbekistonda demokratik saylovlarning huquqiy asoslarini asoslab berish;
- O`zbekistonda ko`ppartiyaviylik va saylovlar jarayonini tahlil qilish.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. BMIda ilgari surilgan ilmiy g`oyalar va chiqarilgan nazariy xulosalar O`zbekistonda demokratik saylovlarda siyosiy partiyalarning o`rnini kengroq yoritish orqali Milliy g`oya: asosiy tushuncha va tamoyillar, ma`naviyat asoslari, falsafa, sotsiologiya, siyotsatshunoslik, O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanlarini yangi fikrlar, yondashuvlar va tavsiyalar bilan boyitadi, xalqimiz hayotida siyosiy partiyalar va demokratik saylovlarning ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

BMIning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi 70 sahifadan tashkil topgan bo`lib, kirish, ikki bob, to`rt qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I-bob.Saylovlar va siyosiy partiyalar.

1.1. Saylov tushunchasi va uning mohiyati.

Hozirgi kunda fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimida saylov instituti muhim o'rin tutadi. Shu orqali fuqarolar bevosita yoki o'z vakillari yordamida davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda faol qatnashadi. Har qanday demokratik davlat va jamiyat o'zagini esa erkin hamda adolatli saylovlar tashkil etadi.

Saylov - ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarini tashkil etish vositasi. Fuqarolarning o'z siyosiy huquqini amalga oshirishi - ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishning eng muhim shakllaridan biri. Saylov o'tkazish tartibi va qoidalari odatda har bir davlatning konstitusiyasi va boshqa konstitusiyaviy huquqiy hujjatlarda belgilanadi. Saylov turli ko'rinishda bo'ladi. Saylov ochiq yoki yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Qaysi organ aylanayotganligiga qarab parlamentga yoki prezidentlikka saylov, parlamentning umumiy yoki bir qismi uchun saylov, o'tkazilishiga qarab yalpi yoki qisman saylov bo'lishi mumkin. Hududiga qarab umumdavlat yoki mahalliy; o'tkazilish vaqtiga qarab navbatdagi yoki muddatdan oldingi; bir partiyali,ko'p partiyali yoki partiyasiz; muqobillik asosida va nomuqobil (agar yagona nomzod ko'rsatilsa); to'g'ri yoki ko'p bosqichli; asosiy yoki qo'shimcha o'tkazilishi mumkin.¹

Saylov okrugi - davlat boshlig'i yoki hokimiyatning vakillik organlariga saylov o'tkazish uchun aholi hududiy tashkilotining asosiy bo'limi. Saylov okgugi unda qancha deputat qatnashishiga qarab bir mandatli va ko'p mandatli bo'lishi mumkin. Har bir okrugdan qonunda belgilangan miqdorda (vakillik normasi) deputatlar saylanadi. Dunyo dalatlari tajribasiga ko'ra, saylovning demokratik tamoyillarga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash maqsadida turli xil milliy ma'muriy bo'linishga mos ravishda saylov okruglari tuziladi, ya'ni davlatning ma'muriy hududiy bo'linish bo'yicha istiqomat qilayotgan aholining o'z vakillarini davlat hokimiyati organlariga saylash shartlari saylov okruglarida belgilanadi.

Saylov tizimi - saylov o'tkazish tartiblarining hamda ularni o'rnatuvchi huquqiy normalarning majmui. Saylov tizimi davlat vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bo'lgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovlarni tashkil qilish va deputatlarning saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydigan tartibini, fuqarolarning barcha saylov huquqlarini o'z ichiga oladi.

1.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. - T.: 2003. - B. 698.

Jahon mamlakatlarning davlat qurilishi tajribasida saylov tizimining majoritar, proporsional va aralash turlari qo'llaniladi. Majoritar saylov tizimi deganda, (fran. majorite- ko'pchilik so'zidan) vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko'p ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqiga nisbatan, mutlaq va malakali ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llaniladi. Masalan, AQSH, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksika va boshqalarda.

Mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizimda berilgan va haqiqiy deb topilgan ovozlarining umumiy sonidan mutlaq (yoki oddiy) ko'p ovoz (ya'ni $50\% + 1$ ta ovoz) olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Agar nomzodlardan birortasi ham yetarlicha ovoz olmasa qayta ovoz berish o'tkaziladi, bunda nomzodlar ro'yxatiga nisbatan ko'p ovoz olgan ikkita nomzod qoldiriladi. Ba'zan qayta ovoz berish o'rniga ikkichi tur ovoz berish o'tkaziladi, buning natijalari boshqacha tizim bo'yicha aniqlanadi. Masalan, Fransiyada Milliy majlis-parlamentga saylovlarda mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim, ikkinchi tur ovoz berishda esa nisbatan ko'pchilikning ovoziga asoslangan majoritar tizim qo'llaniladi. Nisbatan ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim eng sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan o'z raqiblarining har biriga nisbatan ko'p ovoz olgan saylangan hisoblanadi. Bu tizimda ko'pincha saylovchilarning qo'llab quvvatlashlariga ega bo'lmagan partiya parlamentga ko'p o'ringa ega bo'lshi mumkin. AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa bir qancha davlatlarda majoritar tizimning ana shunday shakli qo'llaniladi. Shuningdek, majoritar tizimning kamdan-kam hollarda qo'llaniladigan yana bir turi malakali ko'pchilik ovoziga (umumiy ovozlarining $2/3$, $3/4$ qismiga) asoslangan majoritar tizim ham mavjud (masalan, Chilida parlamentning quyi palatasi- Depututlpr palatasiga saylovlarda shunday tizim qo'llaniladi). biroq bunda faqat juda oz nomzodlar saylovchilarning 65% ovozini olishi mumkin bo'lganligi uchun, mandatlar odatda, vakillikning proporsional tizimi bo'yicha taqsimlanadi.

Har bir saylov okrugidan saylanadigan deputatlarning soniga qarab bir mandatli yoki ko'p mandatli majoritar saylov tizimlari bo'lishi mumkin. Bir mandatli majoritar saylov tizimida bir okrugdan bir deputat saylanadi. Ko'p mandatli majoritar tizimda bir okrugdan bir nechta deputat saylanadi.

Proporsional saylov tizimi- ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibi bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan siyosiy partiyalar va boshqa ommaviy harakatlar o'rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Proporsional saylov tizimida katta-katta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z vakillarining ro'yxatini ilgari suradi, saylovchilar esa tegishli partiyalar yoki ommaviy harakatlar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ro'yxati uchun ovoz beradi. Ovoz berish natijalarini aniqlash uchun saylov me'zoni (yoki kvota), ya'ni bir deputatlik mandatini olish uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori (odatda, kamida 4-5 % qilib) o'rnatiladi. Bunda, shartga ko'ra muayyan jamoat birlashmalarining nomzodlari ana shu belgilangan ovozlarni olgandan keyingina mandatlarini taqsimlashda qatnashadi. Avvalo saylovchilar bergan ovozlar miqdori deputatlik o'rinlarining soniga bo'linadi, shunda bitta mandat doirasidagi ovozlar soni ma'lum bo'ladi. Keyin har bir partiya olgan ovozlar alohida-alohida hisoblab chiqiladi. Bu miqdor deputatlarning bir mandati uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdoriga bo'linadi. Shunda mazkur siyosiy partiya yoki ommaviy harakatga berilgan deputatlik o'rinlari soni kelib chiqadi. Bunday tizimda saylovchi amalda nomzod uchun emas, balki siyosiy partiya uchun ovoz beradi. Saylovchilarning ovozi belgilangan me'yor doirasida va mutanosib ravishda deputatlar mandatlarini sonini keltirib chiqaradi. Bu o'rinlar partiya rahbar organlari tomonidan partiyaviy ro'yxatning bosh qismidan joy olgan nomzodlarga beriladi. Proporsional saylov tizimi Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Aralash saylov tizimi o'zida ham majoritar, ham proporsional saylov tizimini mujassam etadi. Masalan, Germaniyada Bundestagga saylovlarda aralash tizim qo'lladi, uning deputatlarning yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglaridan nisbatan ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar

tizim bo'yicha, ikkinchi yarmi esa, ko'p mandatli saylov okruglari hisoblangan german yerlari (federatsiya sub'ektlari)da siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yhati asosida proporsional tizim bo'yicha saylanadi. Aralash saylov tizimi Bolgariya, Gruziya, Litva, Italiya va boshqa mamlakatlarda ham qo'llaniladi.

Saylov senzlari - konstitutsiya yoki saylov to'g'risidagi qonunlarda belgilangan saylov huquqini amalga oshirishda o'rnatilgan shart va cheklovlar. Senzlar turli xil bo'lishi mumkin: jins va yosh senzi (ayollarning saylov huquqini amalga oshirishiga ruxsat berish yoki cheklash; muayyan yoshga to'lganda saylov huquqini amalga oshirish); ijtimoiy va mulkiy senz, ma'lumotlilik, o'rtoqlilik, fuqarolik senzi va boshqalar. Sivilizatsiya rivojlana borgan sari u yoki bu senzlar inkor etila borgan. Masalan, saylov huquqi faqat erkaklarga berilgan, lekin XX asrga kelib erkaklar va ayollar huquqi tenglashtirilgan. XIX va XX asrlarda tabaqaviy va mulkiy senzlar keng qo'llanildi. Muayyan tabaqa vakillari (ishchilar dehqonlar, harbiy xizmatchilar va boshqalar) ning saylovlarda ishtirok etishga yo'l qo'yilmagan, muayyan mulk va daromadga ega bo'lgan shaxslargina saylash huquqiga ega bo'lgan. Mulkiy, jinsiy, irqiy senzlar demokraiya tamoyillariga to'g'ri kelmasligi uchun ulardan voz kechildi. Hozirgi vaqtda har bir davlatning saylov to'g'risidagi qonunlarida saylov senzlari belgilangan doirada amalda mavjuddir.¹

1.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. - T.: 2003. - B. 698.

1.2.Siyosiy partiyalar faoliyatida saylovning mohiyati va ahamiyati.

Demokratik huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismi bo'lmish siyosiy partiyalar faoliyati, uning huquqiy asoslari haqida so'z yuritishdan avval, "partiya", "siyosiy partiya" tushunchalarining ma'nosini tushunib olish maqsadga muvofiqdir. Partiya so'zi lotincha "partio" so'zidan olingan bo'lib, "bo'lak, bo'laman, ajrataman" degan ma'noni anglatadi, ya'ni butunning bir bo'lagi, jamiyatning bir bo'lagi degan tushunchalarni beradi. Shuningdek, partiya deganda "g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo'lgan, shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi"¹ni tushunish mumkin. Siyosiy partiya - muayyan ijtimoiy guruhlar manfaatini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilot. Demokratik jamiyatda siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular bevosita davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda ishtirok etadi, davlatning vakillik va ijro etuvchi organlarini shakllantirishda qatnashadi.

Partiyalar faoliyatini harakatga keltiruvchi kuchlar, bu xalq hamda turli guruhlarining maqsad va manfaatlari, qadriyatlari, orzu-istaklari va g'oyalariidir. Partiya o'z faoliyati orqali a'zolarining manfaat va ehtiyojlarini davlat boshqaruvi organlariga etkazib turadi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimida mustaqillikka qadar amalda bo'lgan bir partiyaviylik tizimidan voz kechilib, haqiqiy demokratiyaning zarur va qonuniy belgisi bo'lgan tub ma'nodagi ko'ppartiyaviylik - siyosiy plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi, erkinligi yo'li tanlandi. Ko'ppartiyaviylik tizimi tanlanishini quyidagicha izohlash mumkin: **birinchidan**, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12- moddasida: "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, rivojlanadi"² mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida mazmunidagi qoida

1.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. - T.: 2003. - B. 698.

2. 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2013. B.5.

mustahkamlangan va uning mazmuni ko'ppartiyaviylik tushunchasi bilan mutanosib; **ikkinchidan**, salmoqli aholi soniga ega bo'lgan bu davlatda fikrlar, qarashlar ham xilma-xil bo'lishi tabiiy edi. Shuning uchun ham jamiyatda mavjud turli qatlamlar, guruhlarining manfaatini ifodalovchi hamda uni davlat boshqaruvida amalga oshishiga zamin yaratuvchi ko'ppartiyaviylik tizimi zarur deb tanlandi; **uchinchidan**, jamiyatdagi barcha siyosiy kuchlar, ijtimoiy tabaqalarning keng ishtirokini ta'minlovchi ko'ppartiyaviylikka asoslangan saylov davlat hokimiyati vakillik organlarini tashkil etishning demokratik ko'rinishi hisoblanadi. Saylovlarni ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazish, saylovchilar tanlovi uchun bir necha nomzodlar kurashini takozo qiladi. Saylovchilarga, ya'ni xalqqa ushbu nomzodlardan tanlab olish huquqi beriladi.

Ko'pgina mamlakatlarda siyosiy partiyalardan demokratiyaning eng muhim instituti sifatida foydalanib kelinadi. Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning ajralmas belgisi hisoblanadi. Demokratik jamiyat siyosiy tizimida siyosiy partiyalar alohida o'rin tutadi. Partiyalar fuqarolar bilan davlatni bog'lab turish vazifasini bajaruvchi muhim bo'g'in hisoblanadi. Demak, partiya xalqdan yoki davlat hokimiyatidan ustun turadigan narsa emas. Balki davlat bilan xalqning o'rtasidagi vositachi vazifasini amalga oshirib, shu bilan birga, aholi va jamiyat siyosiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Turli mamlakatlarda partiyalarning rivojlanishi har xil kechadi. Bu rivojlanish har bir davlat, millat tarixi, siyosiy faolligi, ijtimoiy-siyosiy tajribasidan kelib chiqib, milliy xususiyatlari asosida turlicha bo'lishi mumkin. Xalqning siyosiy irodasini namoyon etishda partiyalarning ishtiroki oshib borayotganligi, davlat bilan o'zaro aloqadorligining kuchayishi bu siyosiy institutni huquqiy tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu o'rinda, aksariyat demokratik davlatlarning milliy qonunchiligida siyosiy partiyaning huquqiy maqomi aniq belgilab qo'yilganligini kuzatish mumkin.

Shu bilan birga, davlatlarning siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonunchiligi bir-biridan farq qiluvchi jihatlariga ega bo'lsa-da, lekin ularning barchasida mazmun jixatidan jamiyatning ma'lum guruhi manfaatlarini himoya qiluvchi va ro'yobga chiqaruvchi siyosiy tashkilot ekanligi anglashiladi. Shu bilan birga,

quyidagi omillar siyosiy partiyalar maqomi va faoliyatini qonuniy tartibga solish zaruriyati borgan sari muhim ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi: **birinchi omil** - siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida muayyan ijtimoiy guruhlarining manfaatlari, talab va maqsadlarini ifoda etayotganligi hamda shaxs, jamiyat va davlat o'rtasida bog'lovchi vazifasini bajarayotganligi; **ikkinchi omil** - partiyalar jamiyat siyosiy tizimining asosiy tarkibiy qismi va siyosiy institut sifatida davlat hokimiyati mexanizmi ishida faol ishtirok etayotganligi, shuningdek, fuqarolarning siyosiy ongini shakllantirish va siyosiy madaniyati darajasini oshirishda katta rol o'ynayotganligi; **uchinchi omil**- partiyalar siyosiy-huquqiy integratsiya (fuqarolarni davlat boshqaruviga jalb etish) hamda siyosiy sotsializasiya (fuqarolarni siyosiy xabardor etish, partiya kadrlarini tayyorlash va o'qitish) vazifasini bajarayotganligi, shuningdek, nafaqat vakillik demokratiyasining, balki bevosita xalq hokimiyati shakllari faoliyatini ta'minlayotganligi; **to'rtinchi omil**-hozirgi paytda dunyoda siyosiy partiyalar sonining oshib borayotganligi (ularning bugungi kunda jahonning 200 dan ortiq mamlakatlaridagi umumiy soni mingtaga yaqin) hamda ularning huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilgan davlatlardagi ahamiyati kundan-kunga o'sib borayotganligi, jumladan, ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanib borayotganligi; **beshinchi omil** - siyosiy partiyalar maqomining konstitutsiyalarda belgilab qo'yilishi, jahonning ko'plab mamlakatlarida partiyalar to'g'risidagi qonunchilikning jadal rivojlanayotganligi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Modomiki, biz demokratik jamiyat qurmoqchi ekanmiz, jamiyatimizda albatta ko'ppartiyaviylik tizimi bo'lishi kerak. Bu tizim nima uchun zarur, degan savolga men shunday javob bergan bo'lardim. Ko'ppartiyaviylik, avvalo, jamiyatimizda o'z manfaat va qarashlariga ega bo'lgan har qaysi ijtimoiy qatlam va guruhning maqsad va intilishlarini tuluq aks ettirish uchun kerak. Chunki hayot bor ekan, har qaysi toifa o'zining manfaatlarini qandaydir yo'llar bilan amalga oshirishga

1. Germaniyaning siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonuni. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. - T.: 2007. -B.8.

harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil qilish lozim, inson, oila qanday sharoitda tinch va baxtli yashashi mumkin, degan masalalar atrofida fikr yuritadi, kerak bo'lsa, qonuniy yo'llar bilan o'z maqsadlariga erishishga intiladi. Shu ma'noda, har bir partiya o'ziga bo'lgan ishonchni, kuch-quvvatni xalq ichidan oladi. Shuning uchun ham har qaysi partiya - xalqning ma'lum qatlami manfaatlarini ifodalovchi siyosiy kuch, desak, ayni haqiqat bo'ladi"¹.

Saylov jarayonida siyosiy partiyalar faoliyatining ahamiyati haqida so'z yuritishdan avval "Saylov nima?" degan savolga javob berish joizdir. Bugungi kunga qadar turli manbalarda ko'plab ta'riflar berilgan. Xususan, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da "saylov" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Saylov ovoz berish orqali davlag organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi. Fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishi - ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri. Saylov o'tkazishning asosiy qoida va prinsiplari, odatda, har bir davlatning konstitutsiyasi va boshqa konstitutsiyaviy-huquqiy hujjatlarida belgilanadi. Saylov turli ko'rinishda bo'ladi. Unda aholi qatnashishi yoki ularning vakillarigina ishtirok etishi mumkin. Saylov ochiq yoki yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Qaysi organ saylanayotganligiga qarab parlamentga yoki prezidentlikka saylov, parlamentning umumiy yoki bir qismi uchun saylov o'tkazilishiga qarab yalpi yoki qisman saylov bo'lishi mumkin. Hududiga qarab umumdavlat yoki mahalliy; o'tkazilish vaqtiga qarab navbatdagi yoki muddatdan oldingi; bir partiyali, ko'ppartiyali yoki partiyasiz; muqobillik asosida va nomuqobil (agar yagona nomzod ko'rsatilsa); to'g'ridan-to'g'ri yoki ko'p bosqichli; asosiy yoki takroriy saylov o'tkazilishi mumkin"¹.

Shuningdek, "**saylov**" tushunchasi biron-bir organi (davlat, jamoatchilik, xalqaro va hokazolar) ovoz berish yo'li bilan shakllantirish demakdir². Saylov deganda, davlat hokimiyatining vakillik organini yoki mansabdor shaxsini bevosita

1.Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. - T.: O'zbekiston. 2005. -B. 87.

2.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2004. № 7. -B. 430.

xalqning xohish-irodasiga asoslangan holda, ular tomonidan shakllantirish bilan bog'lik jarayon tushuniladi. Shu bilan birga, saylov bilan uzviy bog'liq bo'lgan **saylov** huquqi atamasining mazmunini, saylovni tashkil qilish va o'tkazishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig'indisi tashkil etadi hamda fuqarolarning saylovda qatnashishiga oid siyosiy huquqlari, ya'ni nomzodlar ko'rsatish, saylanish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish va ovoz berish kabi huquqlarini o'z ichiga oladi.

Zero, saylovning eng maqbul va foydali jihatlari bir necha omilga bog'liq bo'ladi. Bular: **birinchidan**, saylov o'z nomi bilan "saylash" va "saylanish" tushunchalarini qamrab olganligi va uni xohish-irodani namoyon etish jarayoniga aylantirganligi; **ikkinchidan**, saylovda fuqarolarning bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi va o'z xohish-irodasini erkin bildirish huquqining amalga oshishi; **uchinchidan**, davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolatlari aniq muddatlarga ega bo'lishi. Saylov tizimi saylov o'tkazish tartiblarining hamda ularni o'rnatuvchi huquqiy normalarning majmui hisoblanadi. Saylov tizimi davlat vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bo'lgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovlarni tashkil qilish va nomzodlarning saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydigan tartibini, fuqarolarning barcha saylov huquqlarini o'z ichiga oladi¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga asosan, «...fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi»², deb belgilangan. Bundan tashqari, Konstitutsiyada "Saylov tizimi" to'g'risidagi alohida XXIII bobning mavjudligi O'zbekistonda saylov o'tkazish asoslari konstitutsiyaviy-huquqiy maqomda belgilanganligini ko'rsatadi. Ushbu bobning 117-moddasida

1.Saidov A. Saylov huquqi. O'quv qo'llanma. -T.: IIV Akademiyasi. 1993. -B.3.

2. 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2013. B.5. .

saylovlarni o'tkazish prinsiplari, fuqarolarning saylash va saylanishga oid huquqlari, qaysi davlat hokimiyati organlarini tuzish uchun saylovlar o'tkazinishi va Markaziy saylov komissiyasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomn mustahkamlangan.

Konstitutsiyaning 117-moddasiga asosan, saylovlarni o'tkazish muddati aniq belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda- dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi, deb qat'iy belgilangan¹.

Aniq muddat belgilab qo'yilganligi sababini quyidagicha izohlash mumkin: *Birinchi sabab*, saylov o'tkaziladigan muddatning aniq belgilanishi har bir siyosiy partiya o'zining harakat dasturini belgilashida, saylov bilan bog'liq chora-tadbirlarni avvaldan hamda chuqur tayyorgarlik asosida amalga oshirishida barqarorlikni ta'minlaydi. Xorijiy davlatlarning saylov o'tkazish amaliyoti ko'rsatishicha, ayrim davlatlarda saylov kunining aniq belgilab qo'yilmaganligi uni tayinlashda qatnashuvchi siyosiy kuchlarning o'zlariga qulay muddatni tanlashi oqibatida saylovning asosiy ishtirokchilari bo'lmish siyosiy partiyalarga ba'zi noqulayliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan holatlar mavjud. *Ikkinchi sabab*, saylov jarayonlarining faol ishtirokchisi hisoblangan fuqarolarning saylov huquqlarini kafolatlaydi. *Uchinchi sabab*, dekabr oyining tanlanganligi ijtimoiy-siyosiy omillar bilan bir qatorda, iqtisodiy ahamiyatga ham ega bo'lib, yil yakunlaridan kelib chiqib, yangi muddatga saylangan parlamentga kelgusi yil uchun yangi dastur va rejalar bilan faoliyatini boshlash imkoniyatini yaratadi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)"gi Qonun bilan Konstitutsiyamizning yuqorida sanab o'tilgan

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2013. B.31-32.

32,117-moddalariga moddalariga)”gi Qonun bilan Konstitutsiyamizning yuqorida sanab o`tilgan 32,117-moddalariga moddalariga)”gi Qonun bilan Konstitutsiyamizning yuqorida sanab o`tilgan 32,117-moddalariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritilishi fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqini yanada kengroq ta`minlashda hamda saylovlarni oshkora amalga oshirishda mustaqil organ Markaziy saylov komissiyasining rolini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi va bu boradagi izchil islohotlarning mantiqiy davomi bo`ldi. Shunday qilib, mamlakatimiz saylov qonunchiligi tizimi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g`risida”gi (18.11.1991), “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to`g`risida”gi (05.05.1994), “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to`g`risida”gi (05.05.1994), “O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to`g`risida”gi (30.04.1998), “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida”gi (yangi tahriri, 29.08.2003) qonunlarda mustahkamlab qo`yilgan¹.

Albatta, saylovlarni tashkil etish maqsadi - davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, fuqarolarning xohish-irodasi bilan kelishishdir. Davlat va fuqaro o`rtasidagi ushbu kelishuv, asosan, saylovlarda yaqqol namoyon bo`ladi. Erkin va bevosita saylovlar orqali fuqarolar o`zlari istagan shaxslarni hokimiyat organlariga saylaydi, ularga nisbatan o`z munosabatini bildiradi hamda davlat boshqaruvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Shu bilan birga, saylov hokimiyatni shakllantirish uchun kurashuvchi siyosiy kuchlarning qonuniy yo`l bilan shakllanishiga va sog`lom raqobat muhitining vujudga kelishiga xizmat qiladigan muhim siyosiy-huquqiy jarayondir. Saylov jarayonlari bevosita fuqarolarning siyosiy faolligi oshishiga hamda fuqarolar huquqiy ongi va siyosiy madaniyatining yanada yuksalishiga xizmat qiladi. Demokratik saylov o`tkazishning asosiy talabi bu - uning ko`ppartiyaviylik asosida tashkil etilganligida ko`rinadi. “Ko`ppartiyaviylik” tushunchasi tom ma`noda saylovlarda bir necha siyosiy partiya, kamida esa ikkita siyosiy partiyaning

1.I.Bekov., K.Hamidov.Saylov va siyosiy partiyalar.-T.:O`zbekiston, 2014.B.28.

ishtirok etishini bildiradi. Shu tariqa, saylov tizimining ko'ppartiyaviyligi fuqarolarning tanlash huquqini kafolatlaydi. "Siyosiy partiyalar faoliyatida saylovning ahamiyati nimada? Ular faoliyatida saylov qanday rol o'ynaydi va partiyaga nima beradi?" - degan savollar ushbu masalaning mohiyatini yoritishni talab etadi.

Ijtimoiy hayotda partiyalar shaklan va mazmunan faol siyosiy tashkilot hisoblanadi. Ularning oliy maqsadini ma'lum guruh, qatlamning irodasini ro'yobga chiqarish, buning uchun hokimiyatga intilish tashkil etadi. Bu yo'lda ular doimiy ravishda jamiyatning faoli bo'lish, undagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlarga o'z munosabatini, ma'lum muammolarga o'z nuqtai nazarini bildirish, echim taklif etish, bunda partiya tutgan yo'lni ko'rsatish, o'z a'zolari fikrini bilish, ular manfaatini ilgari surish, o'z safiga yangi tarafdorlarni, partiyaning qo'llab-quvvatlovchi shaxslarni birlashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish kabi usullardan foydalanadi. Demak, siyosiy partiyalarning faoliyati davomli, tizimli xarakterga ega bo'ladi.

Jahon amaliyotidan kelib chiqib qaraganda, barcha davlatlarda siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashish va milliy siyosatni aniklashtirish va rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va ushbu maqsadga erishish yo'lida g'oyaviy dasturlari bilan hokimiyat tizimida ishtirok etadi. Ushbu ishtirokning asosiy ko'rinishi aynan saylov davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki saylov siyosiy partiyalar intiladigan, kutadigan, jiddiy tayyorgarlik ko'radigan voqelik hisoblanadi. Aynan saylov uchun siyosiy partiyalar o'zining siyosiy-huquqiy hujjatlari - nizom, faoliyat yoki harakat dasturi, siyosiy platformasini qayta ko'rib chiqadi. Saylovda qatnashish qarorini qabul qilish uchun oliy organini (u siyosiy partiyalarda turlicha nomlanishi mumkin: qurultoy, s'ezd va h.k.) chaqirib, eng faol a'zolari bilan kengashadi. Qaror ijobiy hal qilingach, saylovda qatnashishda boshqa siyosiy partiyalardan farqli jihatini ko'rsatuvchi, o'z yo'nalishiga mos bo'lgan hujjat - siyosiy platformasini ishlab chiqadi va e'lon qiladi. Saylovoldi jarayonida har bir partiya davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishda o'zining tutgan yo'lini aks ettiruvchi rejalarini e'lon qiladi.

Xullas, siyosiy partiyaning faolligi har doimgidan ko'ra saylov jarayonida yanada oshadi. Qaysi muammolarni yoki masalalarni qanday hal etishni qaysi partiya qanday taklif etayotganini, rivojlanish dasturining mazmunini yoqlab ovoz berish yoki bermaslikni esa, albatta saylovchilar hal etadi. Saylovlarning mohiyati fuqarolarning o'z xohishi, irodasini bildirish imkoniyatidadir, davlat hokimiyatining tashkil etilishi va harakati esa shu xalq irodasiga mosligidadir. Zero, saylov jarayonida siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotini yanada rivojlantirish, xalqning ma'lum qatlamini qo'llab-quvvatlash yuzasidan qilinadigan sa'y- harakatlar, ilg'or g'oya va qarashlar kurashi orqali jamiyat hayotini demokratik prinsiplar asosida rivojlanishini ta'minlaydi. Demokratik jamiyatda qaysi siyosiy partiyaning o'rni qanday ekanligi saylovda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Ya'ni saylovchilar ovozi, qo'llab-quvvatlashiga ko'ra siyosiy partiya davlat hokimiyatida ma'lum jihatdan siyosiy kuchga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov saylov va siyosiy partiyalar o'zaro bog'liqligiga shunday baho beradi: "Agarda har qaysi partiya muayyan ijtimoiy toifa yoki guruhning manfaatini ifoda etadigan bo'lsa, demokratiyaning eng ta'sirchan mexanizmi bo'lgan saylovlar hisobidan dasturini amalga oshirish, o'z maqsadiga etish imkoniga ega bo'ladi. Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Saylov - demokratiya degani. Demokratiya - bu saylov degani. Chunki har qaysi partiya aynan saylov orqali o'zining tarafdorlarini aniqlaydi, kim unga ovoz beryapti, kim ning g'oya va dasturlarini qo'llab-quvvatlayapti, bularning barchasini amalda ko'rishga muvaffaq bo'ladi. Xullas, hamma narsa saylov paytida ma'lum bo'ladi. Qaysi partiya kimni o'z g'oyalariga ishonтира olgani, kimning manfaatlarini ifoda etgani, shu bilan birga, kimning ularga ergashayotgani, kimlar ishonch bildirgani faqat saylov natijalariga ko'ra ayon bo'ladi. Aynan saylov paytida partiyalar o'zining asosiy va ustuvor fikr-qarashlarini, hayotni qanday yaxshilash, islohotlarni qanday amalga oshirish, O'zbekiston deb atalmish mustaqil davlatning ertangi hayotini qanday barpo etish borasidagi g'oyalarini ilgari suradi"¹. Siyosiy partiya saylovda ishtirok

1.Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13- jild. -T.: O'zbekiston. 2005. -B. 91-92.

etmasligi mumkinmi? Agar saylovda ishtirok etishni siyosiy partiya xoxlamasa yoki imkoniyati bo'lmasa qanday yo'l tutadi? Siyosiy partiyalar bo'yicha hech bir davlatda siyosiy partiyani saylovda ishtirok etishga majburlovchi yoki shart qilib qo'yuvchi norma belgilanmagan. Saylovda ishtirok etish yoki etmaslikni siyosiy partiyalar o'zlari mustaqil hal etadilar va bu qaror qabul qilinishiga na davlat, na biron-bir yuridik yoki jismoniy shaxs to'sqinlik qilishi mumkin emas. Lekin saylovda ishtirok etmagan siyosiy partiya o'z-o'zidan davlat hokimiyati organlarida ma'lum ta'sir kuchiga ega bo'la olmaydi, bu esa aholining partiyaga nisbatan ishonchini, hurmatini so'ndiradi. Bularsiz siyosiy partiya o'zligini yo'qotadi. Siyosiy partiyalar faoliyatida saylovning ahamiyati shunda ko'rinadiki, partiya aynan saylovda xalq qo'llab-quvvatlashining isbot-daliliga ega bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin: *birinchidan*, saylov hokimiyatni shakllantirish uchun kurashuvchi siyosiy kuchlarning qonuniy yo'l bilan shakllanishiga va sog'lom raqobat muhitining vujudga kelishiga xizmat qiladigan muhim siyosiy-huquqiy jarayondir; *ikkinchidan*, siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashadi; *uchinchidan*, saylov siyosiy partiyalar intiladigan, kutadigan, jiddiy tayyorgarlik ko'radigan voqelik hisoblanadi. Aynan saylov uchun siyosiy partiyalar o'z siyosiy-huquqiy hujjatlari - ustav, faoliyat yoki harakat dasturi, siyosiy platformasini qayta ko'rib chiqadi; *to'rtinchidan*, saylov jarayonida siyosiy partiyalar davlat va jamiyat hayotini yanada rivojlantirishga oid, xalqning ma'lum qatlamini qo'llab-quvvatlovchi sa'y-harakatlar, ilg'or g'oya va qarashlar kurashi orqali jamiyat hayotini demokratik prinsiplar asosida rivojlanishini ta'minlaydi; *beshinchidan*, saylov jarayonida siyosiy partiya saylov orqali o'zining tarafdorlari, elektoratini aniqlash, o'z g'oya va dasturlarining hayotiyiligini amalda ko'rishga muvaffaq bo'ladi.

1.Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13- jild. -T.: O'zbekiston. 2005. -B. 91-92.

II-bob. O'zbekiston Respublikasida demokratik saylovlar va siyosiy partiyalar.

2.1.O'zbekistonda demokratik saylovlarning huquqiy asosi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lida amalga oshirilayotgan tub islohotlar izchil davom etmoqda. Har bir saylov mamlakatimiz hayotida muhim siyosiy voqelik hisoblanadi. Zero, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini demokratik saylovlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki saylovlar jarayonida har qaysi davlat va jamiyatda xilma-xil fikrlar, odamlarning xohish-irodasi, orzu-umidlari, ijtimoiy kayfiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda siyosiy tizimii demokratlashtirish jamiyatimiz taraqqiyoti xozirgi bosqichiniig muhim yo'nalishlaridan biridir. O'tgan davr mobaynida fuqarolarimizning siyosiy oigi va tafakkurida, dunyoqarashida jiddiy ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Qolaversa, demokratik qadriyatlarga sodiq ularni rivojlantirish va mustahkamlash g'oyasi bilan yashayotgai yangi avlod vakillari shakllanmoqda. Xususan, saylovlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi muhim ahamiyati shundaki, bu tarixiy tadbirni amalga oshirish bilan O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga, qabul qilgan Konstitutsiyasiga va erkin demokratik jamiyat qurish bo'yicha olib borayotgan o'z yo'liga sodiqligini dunyo hamjamiyati va xalqimiz oldida yana bir bor namoyish etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasiga muvofiq, "Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar"¹. Ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy ahvoliga, irqiy yoki milliy mansubligiga, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga bo'lgan munosabatiga, mashg'ulot turi va xususiyatiga qarab O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqlarini biron-bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi.

1.O'zbekistan Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2013. B.32.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tashkil etish va o'tkazish Markaziy saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Markaziy saylov komissiyasi qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik, mustaqillik, adolatlilikdan iborat bo'lgan tamoyillarga qat'iy tayangan holda butun faoliyati bilan saylov tizimining demokratik prinsiplarini amalga oshirishga ko'maklashishga, saylovchilarning o'z xohish-irodasini erkin bildirish imkoniyatini ta'minlashga da'vat etilgan. Milliy saylov qonunchiligimiz istiqbol davrida ulkan va serqirra yo'lni bosib o'tdi. Davr sinovlarida toblandi. Hozirda eng jiddiy demokratik talablarga javob beradigan darajaga etdi. Bizning fikrimizcha, saylov tizimi huquqiy asoslarining yaratilishi, rivojlanishi va saylov amaliyotini quyidagi ikki asosiy bosqichga ajratishimiz mumkin:

Saylov tizimi konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining yaratilishi davri (1991-2000 yy.) - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda bir palatali Oliy Majlisni ko'ppartiyaviylik asosida shakllantirish bilan bog'liq davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi (1991 yil 18 noyabr), O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (199- yil 8- dekabr),

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida"gi¹ (1993-yil 28-dekabr), "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi (1994-yil 5-may), "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (1994 yil-5-may) qonunlarning qabul qilinishi bilan umum e'tirof etilgan prinsiplar orqali ko'ppartiyaviylikka asoslangan, muqobil saylovlarni tashkil etishning huquqiy bazasi yaratildi. Bu davrda, ya'ni 1994-yil 5-mayda muhim hujjat-"Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bilan fuqarolarga saylov huquqlarini amalga oshirish va ularning o'z xohish-istaklarini erkin ifodalash mexanizmi yaratildi. Yangi saylov qonunchiligi 1994-yilda ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilgan parlament saylovlari amaliyotida sinab ko'rildi. Uning natijasida Birinchi chaqiriq Oliy Majlis tarkibi ikkita siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari hamda tashabbuskor guruhlar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar asosida saylangan deputatlardan iborat tarzda shakllandi.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar orqali yagona partiyaning “etakchilik roli”ga asoslanuvchi “sho`rolar” siyosiy tizimidan butunlay voz kechilib, demokratik asosda shakllangan, ko`ppartiyaviylikka tayanadigan milliy parlament vujudga keldi. Oliy Kengashning o`n ikkinchi sessiyasi 1994-yil-23 sentyabrda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi saylovni 1994-yil-25 dekabrda o`tkazish to`g`risida qaror qabul qildi. Uch bosqich (1994-yil 25-dekabr, 1995-yil 8-va 22-yanvar)da bo`lib o`tgan saylov yakunlariga binoan, 245 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament shakllantirildi. Saylov ko`ppartiyaviylik asosida o`tkazildi. Birinchi chaqiriq (1995-1999-yillar) Oliy Majlis tarkibida O`zbekiston Xalq demokratik partiyasidan ko`rsatilgan 69 nafar, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 47, “Vatan taraqqiyoti” partiyasidan 14 va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan ko`rsatilgan 7 nafar deputat bo`lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko`rsatilgan shaxslar tashkil etdi¹. Ushbu davrda milliy saylov qonunchiligi asosida o`tkazilgan parlament saylovlarida to`plangan amaliy tajribaga muvofiq saylov tizimining demokratik asoslarini mustahkamlash va qonunlarga tegishli o`zgartirishlar kiritish kabi tadbirlarni o`z ichiga oladi.

Jumladan, bu bosqichda saylovlarni tashkil etish va natijalarini aniqlashda xolislikni ta`minlash hamda turli ehtirolarga yo`l qo`ymaslik maqsadida mustaqil organ-Markaziy saylov komissiyasi tuzish borasida, “O`zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to`g`risida”gi (1998-yil 30-aprel) Qonun qabul qilindi va mamlakatimiz tarixida ilk bor demokratik yo`l bilan O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuzildi. Bundan tashqari, deputatlikka mustaqil nomzodlarni ilgari surishni kuchaytirish, O`zbekistonda ko`ppartiyaviylik va siyosiy fikrlar xilma-xilligini kuchaytirishga keng shart-sharoit yaratish maqsadida saylov qonunchiligidan “besh foizlik to`siq” haqidagi qoida chiqarib tashlandi va saylovchilar tashabbuskor guruhlarining bevosita nomzod ko`rsatish huquqlari Oliy Majlisiga saylovlar hamda Xalq deputatlari, tuman va shahar Kengashlariga

1.”O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to`g`risida”gi Konstitutsiyaviy qonun // O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1994. № 10. 250-modda

saylovlar to'g'risidagi qonunlarga bir qator jiddiy qo'shimchalar va o'zgartirishlar mustahkamlandi. Shuningdek, 1999-yil 19-avgustda O'zbekiston Respublikasi kiritildi¹.

Saylov jarayonining muhim sub'ektlari sanalgan siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunining 1996 yilning dekabrda qabul qilinishi bilan 1999 yilda o'tkazilgan parlament saylovlariga yangi huquqiy zamin yaratildi².

Siyosiy partiyalariing Oliy Majlisda o'z siyosatini uyushgan holda o'tkazish uchun parlament fraksiyalarini tashkil etishning qonuniy kafolatlari vujudga keldi. Eng muhimi, siyosiy partiyalarning saylov tartib-qoidalariga rioya qilinishini nazorat etish bo'yicha vakolatlari kengaydi va nomzod ko'rsatgan siyosiy partiya har bir saylov uchastkasiga o'z kuzatuvchisini tayinlash huquqiga ega bo'ldi.

1999 yilda o'tkazilgan parlament saylovlarida fuqarolar ikkinchi marotaba bir nechta nomzod orasidan o'zlariga ma'qullarini saylashdi, ularning har biriga tegishli baho berishdi. Bu saylovlarda raqobat yanada kuchli, saylovchilarning nomzodlarga nisbatan talablarni esa yanada yuqori bo'ldi. Xususan, Ikkinchi chaqiriq (2000-2004 yillar) Oliy Majlisga saylov hokimiyat vakillik organlari bilan bir qatorda, 5 siyosiy partiya va saylovchilar tashabbuskor guruhlar ishtirokida bo'lib o'tdi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisda 11 nafar deputatni birlashtirgan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi, 10 nafar deputatdan iborat "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi, 20 nafar deputatga ega bo'lgan "Vatan taraqqiyoti" partiyasi fraksiyasi, 34 nafar deputat tashkil etgan "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasi fraksiyasi, 49 nafar deputatdan iborat Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi, 107 nafar kishidan iborat hokimiyat vakillik organlaridan saylangan deputatlar bloki va 16 nafar saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bloki ro'yxatga olindi. Keyinchalik "Vatan taraqqiyoti" va "Fidokorlar" partiyalari bitta "Fidokorlar" partiyasiga birlashganligi munosabati

1.E.Kanyazov., Sh.Zulfiqorov., O.Turg'unov.O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi va saylov qonunchiligi.-T.:O'zbekiston, 2014. B.21.

2.O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997. № 2. 36-modda.

bilan Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida ularning parlamentdagi fraksiyalari a'zolari ham birlashib, 54 nafar deputatni birlashtirgan bitta fraksiyani tashkil etdilar¹.

Saylov tizimi huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish, liberallashtirish va saylov amaliyotini takomillashtirish davri (2000-2010 yy.) - bu muddat mamlakatimizda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishda muhim rol o'ynagan jarayonlarga boy bo'ldi. Bu davr bevosita ikki palatali parlament tizimiga o'tish bilan bog'liq saylov qonunchiligining tadrijiy taraqqiyotiga asoslangan uchinchi bosqichning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 2000 yil 25 mayda bo'lib o'tgan Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasidagi "O'zgarish va yangilanish-hayot talabi" ma'ruzasida: **"... hayot o'zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma'naviy ongi ulg'aynishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uiiig faoliyatida ham o'zgarishlar bo'lishi tabiiy. Shu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tish taklifini kiritmoqchiman"**¹, - deb, ilgari surgan mazkur g'oyalari bu davrda qabul qilingan qonun ijodkorlik faoliyati dasturida markaziy bo'g'in bo'ldi².

Bunda quyi palata - Qonunchilik palatasini shakllantirishda, asosan, partiyaviy vakillik prinsipi ustuvor bo'ldi. Siyosiy partiya vakillarining o'z ijtimoiy-siyosiy qarashlari va saylovchilar manfaatlarini ifodalash uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Parlamentning yuqori palatasi - Senat hududiy vakillik organi sifatida e'tirof etildi hamda uning asosiy tarkibi pog'onali saylovlar asosida

1.<http://www.parliament.gov.uz/uz/history/>

2.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild. - T.: "O'zbekiston", 2000. B.483.

shakllanishi Konstitutsiyaviy Qonunda mustahkamlab qo'yildi¹. 2003 va 2008 yillarda Konstitutsiyamizga, shuningdek, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi hamda yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida", "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonunlarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi o'tgan davr mobaynida samarali, demokratik saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirish sohasida g'oyat chuqur o'zgarishlarga asos bo'lib, milliy saylov tizimining izchil va bosqichma-bosqich liberallasuvi, ikki palatali parlament saylovlarining qonun talablari va umum e'tirof etilgan xalqaro prinsip va normalarga to'la mos holda o'tkazilishini ta'minlaydigan mukammal qonunchilik bazasining shakllanishiga olib keldi.

Davlat boshqaruvini demokratlashtirish va yangilash hamda erkinlashtirish sharoitida Prezident vakolat muddatining o'zgartirilishi va ayrim vakolatlarining Senat va Bosh vazirga o'tkazilishi, shuningdek, ikki palatali parlamentning barpo etilishi "Saylov to'g'risida"gi Qonunning o'zgarishiga olib keldi. Shu bois, 2003 yilning 29-avgustida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi² Qonun yangi tahrirda qabul qilindi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartirishlar kiritildi. Shunday qilib, ikki palatali parlamentga saylovlar uchun zarur normativ-huquqiy baza yaratildi. Unda saylov huquqiga oid xalqaro standartlar va saylov tizimini rivojlantirish tajribasi, shuningdek, mamlakatda parlamentarizm taraqqiyotining milliy xususiyatlari e'tiborga olindi. Masalan, 2004-yilgi saylovlarga qadar saylov qonunchiligiga joriy etilgan eng muhim yangiliklar qatorida - mahalliy Kengashlarning deputatlikka nomzodlar ko'rsatish huquqi bekor qilinganligi, siyosiy partiyalar deputatlikka nomzodlar ko'rsatganida

1.O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 2002. № 12. 213-modda.

2.O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonuni yangi tahriri. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 2003. № 9-10. 132-modda.

xotin-qizlar uchun kvota belgilanganligi, shuningdek, saylovoldi tashviqotini olib alohida ta'kidlab o'tish kerak. 2004-yil 30-aprelda "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonun esa, partiyalarga saylovoldi kurashini faol va mazmunli tarzda o'tkazishlariga qo'shimcha imkon yaratdi¹.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylov va ikki palatali parlamentga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish asosida amalga oshirilgan konstitutsion islohotlar, shuningdek, asosiy konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilinishi natijasida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazilib, u ikki bosqichdan iborat bo'ldi. Saylov o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, saylov uchastkalariga bo'lingan 120 ta saylov okrugi tashkil etdi. Saylovning birinchi bosqichi 2004 yil 26 dekabr kuni o'tkazilib, 62 nafar xalq noibi, 2005 yil 9 yanvarda bo'lib o'tgan ikkinchi bosqichda Qonunchilik palatasiga 58 nafar deputat saylandi. Saylovlar ham O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, ham saylovchilarning tashabbuskor guruhlarini ko'rsatgan deputatlikka nomzodlar ishtirokida bo'lib o'tdi. Saylovda quyidagi siyosiy partiyalar ishtirok etdi: O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasi (2000 yilning iyunida "Fidokorlar" partiyasi "Vatan tarakkiyoti" partiyasi bilan birlashgan), O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, shuningdek, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi². 2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan va 2009-yil - iyuldan "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni saylov jarayonining huquqiy asoslarini yanada rivojlantirdi. Ushbu qonunga muvofiq, Oliy Majlisning Qonunchilik

1/O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 2004. № 5. 86-modda.

2.<http://www.parliament.gov.uz/uz/history/>

palatasidagi deputatlik o`rinlarining soni 120 tadan 150 taga o`zgartirildi. Bunda 135 ta o`rinni siyosiy partiyalardan ko`ppartiyaviylik asosida bir mandatli okruglarda saylanadigan deputatlar egallaydi. O`zbekiston Ekologik harakatidan esa Qonunchilik palatasining o`n besh deputati mazkur harakatning oliy organi (Konferensiyasi) tomonidan Markaziy saylov komissiyasi belgilaydigan muddatlarda saylanadigan bo`ldi. Shuningdek, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan real jarayonlarda siyosiy partiyalarning roli kuchayib borayotganligi inobatga olinib, saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan deputatlikka nomzodlar ko`rsatish instituti bekor qilindi. Shuningdek, deputatlikka nomzodlar ishonchli vakillarining soni 5 nafardan 10 nafarga o`zgardi. Saylovga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazishda saylov komissiyalari faoliyatining oshkoraligini yanada kuchaytirishni ta`minlashga yo`naltirilgan bir qator yangi tartib-qoidalar joriy etilmoqda.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida saylov qonunchiligi izchillik bilan, bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. O`zbekiston saylov tizimi har bir bosqichda Konstitutsiya va xalqaro andozalarga mos ravishda, islohotlar maqsadi va fuqarolar siyosiy-huquqiy ongining o`sb borishiga mutanosib tarzda yangi pog`onaga ko`tarilib, saylov qonunchiligining amaliyotda izchil qo`llanilishi mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning tarkibiy qismiga aylandi.

Ko`rinib turibdiki, O`zbekistonda saylovlar nafaqat fuqarolarning siyosiy huquqlarini ta`minlash, balki davlat hokimiyatini shakllantirishning birlamchi omiliga aylanishga ulgurdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, saylovlarning ahamiyati va roli quyidagi nazariy qarashlarda ham namoyon bo`ladi. Xususan, demokratik davlatda, siyosiy madaniyat va fuqarolarning tashabbuskorligi yuqori darajada rivojlangan paytlarda ham saylovlarda to`la yakdillik bo`lmasligi tabiiy hol hisoblanadi. Sababi, saylovlarning asosiy maqsadi barcha fuqarolarning o`rtasida xayoliy kelishuvga (konsensus) erishishdan iborat bo`lishi kerak emas, chunki unga, favquloddagi vaziyatlardan tashqari, rivojlangan jamiyatda hech

qachon erishib bo'lmaydi, balki saylovlar orqali barcha fuqarolar o'z irodasini bildirish imkoniyatiga ega bo'lishlari, davlat hokimiyatining vakillik organlari esa - mazkur irodaga mos holda tashkil etilishi va harakat qilishi lozimligini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, saylovlardagi kurash orqali, pirovard natijada, jamiyat hayotida barqarorlikka va rivojlanishga erishiladi.

Illy bilan birga, saylovlar iomzodlar kurashi va siyosiy jarayon bo'lganligi uchun, ularda turli xil siyosiy o'yinlar va manfaatlar to'qnashuvi mavjud. Bunday holatniig yuzaga kelishiga sabab shundaki, saylovlarda ishtirok etayotgan fuqarolar siyosiy partiyalar tomonidan taklif etilayotgan dasturlarga, shuningdek, aniq nomzodlarga nisbatan o'z xayrixohliklarini bildirish yoki ma'qullamasliklarini namoyon qilishlariga sharoit yaratiladi. Saylov kampaniyasi jarayonida, odatda, fuqarolarda siyosiy ehtirolarning kuchayishi kuzatiladi va bunday holatlarda turli xil kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud bo'ladi. Shu bois, rivojlangan jamiyatlarda, bunday muammolarni yuzaga kelish ehtimolini oldini olish maqsadida qonunning tegishli talablari doirasida siyosiy axloqning muayyan standartlari ishlab chiqilgan bo'ladi. O'z navbatida, bu kabi standartlarning O'zbekistondagi saylov jarayonlarida qo'llanilishi mazkur Qonunchilik jarayonlarning yanada demokratlashuviga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz¹.

Mamlakatda ko'ppartiyaviylikni rivojlantirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan **“Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalariig rolii kuchaytirish to'g'risida”**gi Konstitutsiyaviy Qonun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari, ommaviy axborot vositalarining fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning saylovda, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarida keng ishtirokini kuchaytirishdagi roli tobora ortib borib, partiyalararo sog'lom raqobat, o'z

1.E.Kanyazov., Sh.Zulfiqorov., O.Turg'unov.O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi va saylov qonunchiligi.-T.: O'zbekiston, 2014. B.21.

saylovchilari uchun kurashi kuchaymoqda. Buning negizida davlat suvereniteta eʼlon qilinganidan buyon oʻtgan tarixan qisqa muddat ichida Oʻzbekistonda barcha umum eʼtirof etilgan xalqaro-huquqiy andozalarga mos aniq-puxta saylov tizimi shakllangani, partiyalar orasida raqobat kuchayib borayotgani, siyosiy partiyalar bilan jamiyat oʻrtasida mustahkam hamkorlik yoʻlga qoʻyilgani, eng muhimi, davlatning oʻzi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi salohiyatining kuchayishidan, fuqarolik jamiyatini demokratak islohotlar va mamlakatni modernizatsiya qilishga jalb etishdan, erkin va ochiq saylovlar oʻtkazishdan manfaatdor ekani amalda iamoyon boʻlayotganligi Oʻzbekistonning demokratik yoʻldan izchil taraqqiy etishi uchun ulkan imkoniyatlar yaratmoqda.

Agar raqamlarga murojaat qilsak, 2009 yil 27 dekabr kuni davlat hokimiyati vakillik organlariga boʻlib oʻtgan saylovlar qopun talablariga toʻliq muvofiq holda, yuksak demokratik darajada oʻtkazilganini koʻrsatadi. Bundan tashkari, MSK tomonidan “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari sayloviga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish boʻyicha Konsepsiya”iing qabul qilinganligi ham katta ahamiyatga ega boʻldi.

Mazkur saylovlarning demokratik ruhda oʻtkazilganligini quyidagi raqamlarda koʻrishimiz mumkin: masalan, bir deputatlik mandata uchun 99 ta saylov okrugida 4 nafardan, 36 ta saylov okrugida 3 nafardan nomzod kurash olib bordi. Mamlakatimiz boʻyicha saylovchilar roʻyxatiga 17 million 215 ming 700 nafar saylovchining familiyasi kiritilib, ovoz berishda 15 million 108 mingdan ortiq yoki saylovchilarning 87,8 foizi qatnashdi.

Umuman, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi natijalariga koʻra: Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 53 nafar; Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasidan 32 nafar, Oʻzbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 31 nafar, Oʻzbekiston “Adolat” sotsial- demokratik partiyasidan 19 nafar deputat saylandi. 15 nafar deputat Oʻzbekiston Ekologik harakatining vakillaridir. 150 nafar saylangan deputatning orasida 33 tasi yoki 22 foizini xotin-

qizlar tashkil etadi .

Saylangan 150 nafar deputatdan 47 kishi yoki 31,3 foizi ilgari Qonunchilik palatasi deputatlari bo'lgan. Bu holat saylangan deputatlarning nafaqat o'z saylovchilarining ishonchiga sazavor bo'lganligidan, qolaversa, professional parlamentni shakllantirishda ularning hayotiy tajribasi va qonun ijodkorligi amaliy ko'nikmalaridan yanada samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Yangi saylangan deputatlar korpusining tarkibida Qonunchilik palatasining professional xususiyati o'z aksini topgan. Saylangan deputatlar orasida 34 nafari yoki 22,7 foizi huquqshunoslar, 37 nafari yoki 24,7 foizi - iqtisodchilar. Ayni paytda, quyi palata tarkibida jamiyatning deyarli barcha qatlamlari vakillari bor.

Saylov jarayoni oshkoraligi va transparentligiga ko'p jihatdan ommaviy axborot vositalari, mahalliy va xorijiy kuzatuvchilarning faoliyati katta omil bo'lib xizmat qildi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish va u qanday o'tayotganligini 500 dan ortiq mahalliy va 200 dan ziyod xorijiy ommaviy axborot vositalari yoritib bordilar. Shuningdek, 36 ta davlatdan va 4 ta xalqaro tashkilotdan, xususan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, MDH Ijroiya qo'mitasi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Islom konferensiyasi tashkiloti missiyalaridan tashrif buyurgan 270 dan ziyod kuzatuvchilar, shuningdek, deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalarning 60 mingdan ziyod kuzatuvchilari va vakolatli vakillari saylov monitoringini yuritdilar¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga 2009 yilda bo'lib o'tgan saylovda xalqimiz O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan, aholining farovonligini yuksaltirish ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida muvaffaqiyat bilan olg'a odimlayotganligini yana bir karra namoyon etdi.

1.http://elections.uz/uzb/news/markaziy_saylov_komissiyasi_raisi_mabdusalomovning_brifmgdagi_maruzasi.mgr

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlashpirish Konsepsiyasi - O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirishning yangi bossichi (2010 yildan boshlanadi). Konsepsiyada ilgari surilgan davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning o'рни va rolini kuchaytirishga, saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirishga qaratilgan qator g'oya va qonunchilik tashabbuslari O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'nalishidagi demokratik yangilanish va mamlakatni modernizatsiya qilishga oid jarayonlarni ham yangi bosqichga olib chiqishi, tanlagan "o'zbek modeli" deb nom olgan o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan barqaror rivojlanishimizni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yurtboshimiz Konsepsiyada partiyalararo raqobatning kuchayishi, saylovoldi tashviqotining shakl va usullari tobora turli-tuman va keng miqyosga ega bo'lib borayotgani bois O'zbekiston saylov qonunchiligida saylov kampaniyasining ushbu muhim bosqichida deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlar yaratish mexanizmlari samaradorligini oshirishga qaratilgan normalarni nazarda tutuvchi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritishii taklif etdi¹.

O'zbekiston Respublikasining saylov qonunchiligida saylovoldi tashviqoti bilan bog'liq huquqiy asoslar mustahkamlangan bo'lib, ular mazkur tadbirning teng, adolatli, ochiq va oshkora mezonlar asosida olib borilishini to'la kafolatlaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va mahalliy Kengashlarga saylov jarayonlariga oid munosabatlar "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi,

1.E.Kanyazov., Sh.Zulfiqorov., O.Turg'unov.O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi va saylov qonunchiligi.-T.: O'zbekiston, 2014. B.30.

Darhaqiqat, saylovoldi tashviqoti saylov jarayonining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Chuiki, davlat hokimiyatining vakillik orgailariga o'tkaziladigan saylovlarda saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlar va ularni ko'rsatgan siyosiy partiyalar uchun o'ziga xos katta sinov hamda sarxisob davri hisoblanadi. Shuning uchun saylov kampaniyasida saylovoldi tashviqoti jarayoni nihoyatda muhim boskich bo'lib, unda siyosiy partiyalar, nomzodlar mamlakatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy yuksaltirish bo'yicha o'z dasturlarining mazmui-mohiyatini namoyon qiladi. Ushbu bosqichning o'ziga xos ahamiyati, shuningdek, nomzodlarning saylovda yutib chiqish uchun butun kuch-quvvati, bilimi va qobiliyatini sarflagan holda o'zaro sog'lom siyosiy raqobat ruhida elektoratning ovozi uchun kurash olib borishlarida namoyon bo'ladi. Ana shuning uchun ham saylovoldi tashviqotining asosiy maqsadi saylov jarayonini yuqori darajada ochiqligini ta'minlash va nomzodlarga o'z dasturlari to'g'risida saylovchilarga to'liq va ishonchli ma'lumotlarni etkazib berishlari uchun keng va teng sharoitlar yaratishdan iborat.

Bunda, saylovoldi tashviqoti bosqichining asosiy yuridik mezonlari sifatida saylovoldi tashviqotining boshlanish va yakunlanish muddati; qonunchilikda belgilangan shakl va usullardan foydalanish; siyosiy partiya va nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar uyg'unligiga erishish; siyosiy partiyalariing bor imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi; tashviqot olib borish huquqining suiste'mol qilinishiga yo'l qo'yilmaslik; ruyxatga olingan deputatlikka nomzod tomonidan saylovoldi tashviqoti o'tkazish qoidalari qo'pol ravishda buzilgan hollarda saylov komissiyasining nomzodni ro'yxatga olish to'g'risidagi qarorini bekor qilinishi kabi prinsiplar muhim rol o'ynaydi.

Qonunga muvofiq, saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlar ro'yxatga olingan kundan e'tiboran boshlanadi. Bynda nomzodlarga, siyosiy partiyalarga ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq beriladi. Saylov qonunchiligiga kiritilgan yangi qoidalarga asosan saylovchilarning yig'ilishlari siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil ravishda o'tkaziladi. Yig'ilish o'tkaziladigan joy va vaqt, qoida tariqasida, uchastka saylov komissiyalari bilan kelishib olinadi. Mahalliy hokimiyat organlari va jamoat birlashmalari,

shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqirish organlari deputatlikka nomzodlarga yig'ilishlar o'tkazish uchun jihozlangan xonalar ajratishlari, ularga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishni tashkil etishda, zarur ma'lumot va axborot materiallarini olishda yordam ko'rsatishlari lozim. Yig'ilish va uchrashuvlarning o'tkaziladigan joyi hamda vaqti haqida saylovchilarga oldindan xabar qilinadi. Tashviqot davomida siyosiy partiyalarga o'zining kelgusi faoliyat dasturi bilan chiqish huquqi beriladi.

Qonunchilikda belgilab quyilgan deputatlikka nomzod o'n nafarga qadar ishonchli vakilga ega bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi norma ham juda muhim. Sababi, ishonchli vakillar nomzodlarga saylovoldi tashviqotini olib borishlari uchun juda katta yordam beradi. Shuning uchun ishonchli vakillarga nomzod deputat etib saylanishi uchun tashviqot yuritish, davlat organlari va jamoat birlashmalarining organlari, saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarda, shuningdek, saylov komissiyalarida nomzodning manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan.

Milliy saylov qonunchiligimizda saylovoldi tashviqotini amalga oshirish jarayonida saylovchilarning yig'ilishlari siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil ravishda o'tkazilishi qonunchiligimizda mustahkamlab qo'yilishi siyosiy partiyalarga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Biroq ana shu imkoniyatlardan foydalanishda siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlar amaldagi me'yorlar talablariga qat'iy rioya etishlari lozim. Chunki saylovoldi tashviqoti - nomzodlar va siyosiy partiyalar hamda saylovchilar uchun ham nihoyatda muhim palla. Chunonchi, aynan shu davrda deputatlikka nomzodlar saylovoldi tashviqoti jarayonida o'zining bilimi va salohiyatini, odob-axloqi, yurish-turishi, qarashlarini saylovchilar oldida to'la namoyon qiladi. Ayni chog'da, deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalar o'z dasturlarining asosiy yo'nalishlari, mazmun-mohiyati va kelgusidagi rejalari bilan saylovchilarni yaqindan tanishtiradilar.

Prezidentimizning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"da saylov qonunchiligini rivojlangirish borasida ilgari surgan muhim tashabbuslaridan biri

sifatida saylovoldi tashviqotining huquqiy asoslari, uning tushunchasi, olib borish shartlari, turlari, ruxsat etilgan shakl hamda usullarini qonun bilan belgilab qo'yish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ko'rinib turibdiki, "saylovoldi tashviqoti" tushunchasining aniq belgilab qo'yilishi, uni amalga oshirish shartlari, turlari, ruxsat etilgan shakl xamda usullarining qonunchilikda mustahkamlanishi, avvalo, ushbu jarayonda deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Saylov kampaniyasi jarayonida saylovoldi tashviqotini olib borish sohasida milliy amaliyot shuni ko'rsatadiki, unga oid shakl va usullar siyosiy partiyalarning kelgusi dasturi va saylovoldi platformasi to'g'risidagi ma'lumotlar, siyosiy partiyalarning o'z nomzodlariga ovoz berishga chaqiruvchi ma'lumotlar, nomzodlarga ovoz berishga chaqiruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish, ijtimoiy so'rov natijalarini e'lon qilish ko'rinishida bo'ladi. Saylov jarayonida jamoatchilik fikrini o'rganish va ijtimoiy so'rov natijalari saylov kampaniyasi davomida axborot-ma'lumot etkazish, yo'naltirish, bashorat qilish hamda targ'ibot funksiyalarini bajaradi.

Bunda bir martalik bosma mahsulotlar (banner, plakat, buklet va boshq.) chiqarish va tarqatish, davriy bosma nashrlarda siyosiy partiya va deputatlikka nomzodlar to'g'risida axborot e'lon qilish (maqola, intervyu, nomzod haqida ma'lumotlar va boshq.), audiovizual va fonogrammalar (ommaviy debatlar, munozaralar, matbuot anjumanlari, partiyalarning reklama roliklari va boshq.) efirga uzatish, axborot ma'lumotlarini, bosma mahsulotlarning elektron versiyasini har qanday ma'lumot tashuvchi vosita (jumladan, Internet) orqali tarqatish ham shular jumlasidan.

Saylovchilar bilan telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda muloqot qilish hamda siyosiy partiyalar, deputatlikka nomzodlar va ularning ishonchli vakillarining saylovchilar bilan uchrashuvlar paytidagi to'g'ridan-to'g'ri muloqoti va boshqalarni uyushtirish kabi shakllaridan ham keng foydalaniladi.

Aslida, milliy qonunchiligimizda ko'zda tutilgan saylov kampaniyasi jarayoni har bir bosqichining quyidagi bir qator: birinchidan, ularning aniq belgilangan

muddatlardan shakllanishi, ya'ni davriyligi, ikkinchidan, mantiqiy ketma-ketlik va uzviyligi, uchinchidan, biri ikkinchisini to'ldirishi, ya'ni yaxlitligi, to'rtinchidan, har bir bosqichning aniq maqsadlarga yo'naltirilganligi kabi o'ziga xos belgilari mavjud. Biroq, shunday bo'lsa-da, saylovoldi tashviqoti saylov jarayonining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Sababi, davlat hokimiyatining vakillik organlariga o'tkaziladigan saylovlarda saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlar va ularni ko'rsatgan siyosiy partiyalar uchun o'ziga xos katta sinov hamda sarhisob davri hisoblanadi. SHuning uchun saylov kampaniyasida saylovoldi tashviqoti jarayoni nihoyatda muhim bosqich bo'lib, unda siyosiy partiyalar, nomzodlar mamlakatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy yuksaltirish bo'yicha o'z dasturlarining mazmun-mohiyatini namoyon qiladi.

Undan tashqari, 2014-yil 16-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi hamda 2014-yil 4-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.

Fikrimizcha, muhtaram Yurtboshimiz tomonidan saylovoldi tashviqotini o'tkazishning huquqiy asoslarini belgilovchi moddalarga "saylovoldi tashviqotining nafaqat saylov kuni, balki ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin ham olib borish mumkin emas"ligi to'g'risidagi normani kiritishga oid tashabbuslari ovoz berish jarayonida saylovchining o'ch xohish-irodasini erkin ifodalashini ta'minlovchi muhim kafolatdir. Mazkur mazmundagi qoida nafaqat saylovchilarga o'z qarashlarini, siyosiy xayrixohligini aniqlab olish uchun qo'shimcha vaqt berilishiga imkon yaratadi, balki saylov kunidan oldin saylovoldi tashviqoti sub'ektlari tomonidan turli suiste'mollik holatlari va qonun buzilishlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, davlat hokimiyati va boshqaruvidagi yangi tamoyillar mamlakatimiz siyosiy tizimida tom ma'nodagi yangi bosqichni boshlab

berish bilan birga, siyosiy iartiyalarning kelgusi faoliyatiga ham yangicha mazmun baxsh etadi. Bular, avvalo, O'zbekistondagi siyosiy partiyalar o'z saflarinig shakllanishini takomillashtirish uchun partiyalar yangi a'zolari tanlash va qabul qilish mezonlarini qayta ko'rib chiqishlari, boshlang'ich partiya tashkilotlari faoliyatini yanada jonlantirish orqali yangi g'oyalarni shakllantirishga; ikkinchidan, bo'lg'usi parlament saylovlarida muvaffaqiyat qozonish uchun saylovchilar bilan munosabatlarning kuchaytirilishiga, jadal mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlari olib borishga, davlat hokimiyati ustidan keng jamoatchilik nazorati olib borishga hamda qonun ijodkorligida faol ishtirok etishga; uchinchidan, siyosiy hayotning barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, Konsepsiyada belgilangan "O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi va saylov qonunchiligimizda xalqimizning bugungi hayoti va an'analarining o'ziga xos xususiyatlari mujassam bo'lib, ular ko'ppartiyaviylikni yanada rivojlantirishda, siyosiy partiyalar o'rtasidagi raqobatni, g'oyalar va dasturlar kurashini faollashtirishga, barcha fuqarolar va siyosiy partiyalarga davlat hamda jamiyatni boshqarishda faol ishtirok etish mexanizmlarini takomillashtiradi, saylov tizimining yanada demokratlashuviga xizmat qiladi.

2.2.O`zbekistonda ko`ppartiyaviylik va saylovlar.

Mustaqillik yillarida parlamentga 1994 yil, 1999 yil, 2004 yil, 2009 va 2014 yillarda ko`ppartiyaviylik asosida saylov o`tkazildi. Respublikamizda bugungi kungacha vakillik organlariga bo`lib o`tgan saylovlar tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, davlat ro`yxatidan o`tgan barcha siyosiy partiyalar ushbu jarayonda faol ishtirok etganiga guvoh bo`lamiz.

Siyosiy partiyalar saylov jarayonining asosiy sub`ekti sifatidagi mavqei yildan yilga oshib borishini shundan ham ko`rish mumkinki, 1994 yilgi birinchi chaqiriq Oliy Majlisga o`tkazilgan saylovlar ko`ppartiyaviylik asosida o`tkazildi. Birinchi chaqiriq (1995-1999 yillar) Oliy Majlis tarkibida O`zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 69 deputat, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 47, “Vatan taraqqiyoti” partiyasidan 14 va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan ko`rsatilgan 7 deputat bo`lib, deputatlarning qolgan qismoni hokimiyat vakillik organlaridan ko`rsatilgan shaxslar tashkil etdi¹.

1999 yilgi parlament saylovida qatnashgan partiyalar soni beshtaga yetdi - O`zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 49 nafar deputat, “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasidan 34 nafar deputat, “Vatan taraqqiyoti” partiyasidan 20 deputat (2000 yil 14 aprelda “Vatan taraqqiyoti» partiyasi bilan “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi maqsad-muddaosi, maslagi bir ekanligidan kelib chiqib birlashdi. Ikki partiya negizida yangi “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi tashkil topdi), “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 11 deputat hamda “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 10 nafar deputat saylangan. Partiyalardan saylangan deputatlar umumiy deputatlar sonining 45 foizini tashkil qilgan².

2004 yil dekabr oyida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga o`tkazilgan saylovlarda amalda faoliyat yuritayotgan 5 ta partiya ishtirok etdi. 2004 yil 26 dekabrda bo`lib o`tgan saylov natijalariga ko`ra, saylovda 489 ta deputatlikka nomzod, shu jumladan, siyosiy partiyalardan 435 ta nomzod

1.<http://www.parlament.gov.uz/uz/history/>

2.I.Bekov.,K.Xamidova.Saylov va siyosiy partiyalar.-T.: O`zbekiston, 2014. B.33.

ishtirok etdi. Saylovlar natijasida O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 41 nafar deputat, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 28 nafar deputat, "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasidan 18 ta deputat, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 11 ta deputat, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 10 nafar deputat Qonunchilik palatasidan o'rin oldi. Partiyalardan ko'rsatilgan deputatlar soni umumiy deputatlarning 88,4 foizini tashkil qildi.

2009 yilgi saylov kampaniyasini tahlil etsak, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bo'lib o'tgan saylovlarda to'rtta siyosiy partiya nomzodlarni ro'yxatga olish uchun hujjatlarni topshirgan. MSK to'rtta siyosiy partiya har birining deputatlikka nomzodlariga Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishga ruxsat berdi. Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga 517 ta nomzodni, shu jumladan, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 123 ta, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 125 ta, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 135 ta, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 134 ta nomzodni ro'yxatga olish to'g'risida qaror qabul qildi¹. Saylovoldi tashviqoti davrida 11 nomzod berilgan arizalari asosida ro'yxatdan chiqarildi. Shunday qilib, Qonunchilik palatasidagi 135 ta o'ringa 506 nafar deputatlikka nomzod da'vogarlik qildi. Har bir siyosiy partiya Qonunning 22-moddasi talablarini bajarib, deputatlikka nomzodlar sonining kamida 30 foiziga xotin-qizlarni nomzod etib ko'rsatdi².

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning 22-moddasiga muvofiq ro'yxatga olingan 517 deputatlikka nomzodning 31,9 foizini xotin-qizlar, shu jumladan, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan ro'yxatga olingan nomzodlarning 31,7 foizini, O'zbekiston "Milliy

1.O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining axborotnomasi. 2010. 1-2-son.-B. 165.

2.I.Bekov.,K.Xamidova.Saylov va siyosiy partiyalar.-T.: O'zbekiston, 2014. B.34.

tiklanish” demokratik partiyasidan roʻyxatga olingan nomzodlarning 32 foizini, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasidan roʻyxatga olingan nomzodlarning 33,3 foizini, Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasidan roʻyxatga olingan nomzodlarning 30,6 foizini xotin-qizlar tashkil etdi¹.

2009 yilgi saylovlarda Qonunchilik palatasiga nomzodi qoʻyilgan xotin-qizlar kuchli intiluvchanlik va yuksak professionalizm namoyish etdi, siyosiy etuklik, aql-zakovatda raqiblaridan qolishmadi. Natijada, Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning qariyb 22 foizini xotin-qizlar tashkil etdi, bu esa 1999 yilda Oliy Majlisga boʻlgan saylovlardagidan ikki yarim baravar koʻpdir².

2014 yilda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari sayloviga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish boʻyicha tadbirlar dasturida koʻzda tutilgan tashkiliy-huquqiy tadbirlarning izchil amalga oshirilgani bunda muhim omil boʻlib xizmat qildi. Saylovoldi kampaniyasida qonunchilikda belgilangan barcha uchun majburiy va bir xil norma hamda talablarga toʻliq amal qilindi.

Milliy qonunchiligimizga muvofiq, siyosiy partiyalar va ular tomonidan ilgari surilgan deputatlikka nomzodlarga saylovoldi kampaniyasi, saylovchilar bilan uchrashuvlar oʻtkazish, saylovoldi dasturlari mazmun-mohiyatini saylovchilarga yetkazish, saylovoldi tashviqotini amalga oshirish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq va imkoniyatlar taqdim etildi. 2014 yil saylovi haqida Markaziy saylov komissiyasi raisi brifing qatnashchilariga Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi natijalariga koʻra, 150 deputat, jumladan, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 52 nafar, Oʻzbekiston "Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 36 nafar, Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasidan 27 nafar, Oʻzbekiston "Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 20 nafar deputat saylanganini maʼlum qildi. 15 deputat Oʻzbekiston Ekologik

1.I.Bekov.,K.Xamidova.Saylov va siyosiy partiyalar.-T.: Oʻzbekiston, 2014. B.35.

2.Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining axborotnomasi. 2010. 1-2-son.-B. 180.

harakatining vakillaridir. Saylangan 150 deputatning 24 nafari xotin-qizlardir.

Saylangan 150 deputatdan 40 nafari ilgari Qonunchilik palatasi deputati bo'lgan. Bu saylangan deputatlar nafaqat o'z saylovchilarining ishonchiga sazovor bo'lgani, balki parlament Qonunchilik palatasi faoliyatida ularning hayotiy tajribasi va qonun ijodkorligi bo'yicha amaliy ko'nikmalaridan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan buyon mamlakatni demokratlashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli viloyatimiz aholisining ham saylovlar jarayoniga bo'lgan munosabati mutlaqo o'zgarayotganligi kuzatilmoqda. Xususan, 2014 yil 21 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga o'tkazilgan saylovlarda 1228405 nafar saylovchilarning 91% dan ortig'i faol ishtiroki kuzatilib, xalq deputatlari viloyat Kengashining 60 ta saylov okrugi bo'yicha to'liq o'z nomzodlarini ko'rsatishdi. Bundan tashqari, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining jami 361 ta okrugi bo'yicha "Milliy tiklanish" DP 354ta (98%), O'zLiDep 349 ta (96,6%), O'zXDP 343 ta (95%) va "Adolat" SDP 341 ta (94,5%) okrugda o'z nomzodlarini ko'rsatib, tuman va shahar darajasidagi saylovlarda ham faol ishtirok etishdi¹.

Ommaviy axborot vositalari, mahalliy va xorijiy kuzatuvchilar faoliyati saylov jarayonining ochiqqligi va oshkoraligini tahminlashga xizmat qildi. Saylov jarayonini 550 dan ortiq milliy va 120 dan ziyod xorijiy ommaviy axborot vositasi, jumladan, 180 dan ortiq internet-nashr yoritib bordi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq 9 mingdan ortiq material e'lon qilindi. 5 xalqaro tashkilot – Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi va Islom hamkorlik tashkiloti, shuningdek, 52 xorijiy davlatdan 340 dan ortiq kuzatuvchi va deputatlikka nomzodlarni ilgari surgan siyosiy partiyalarning 70 mingdan ziyod

1.J.Boltayev.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi: ahamiyati, tashkiliy-huquqiy asoslari.//Buxoronom, 2015 yil 11 fevral.

kuzatuvchisi va vakolatli vakili saylovni monitoring qilib bordi¹.

Barcha bo'g'indagi saylov komissiyalarining uyushqoqlik bilan mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilik tamoyillariga asoslangan faoliyati saylovning demokratik printsiplar asosida o'tkazilishi, ushbu jarayonda amaldagi qonunchilikka rioya qilinishini ta'minladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bo'lib o'tgan saylov xalqimiz demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha O'zbekiston tanlagan yo'lga sodiqligini yana bir bor namoyon etdi.

Jumladan, 2015-yil 29-mart kunidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentlik saylovi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", "O'zbekiston Respublikasi saylovi to'g'risida"gi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida" gi qonunlar asosida o'tkazildi. Mazkur saylov 2014-yil 26-dekabr kuni Prezidentlik saylovini o'tkazish bo'yicha saylov kompaniyasi tuzilgan. Saylovchilar Respublika bo'yicha 20.798.052 nafarni tashkil etgan. Markaziy saylov komissiyasi Prezidentlik saylovini yoritish uchun davlatimiz va xorijiy ommaviy axborot vositalarining 340 dan ziyod vakillarini akkreditatsiyadan o'tkazdi. Markaziy saylov komissiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri chegaralari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi 14 saylov okrugi, okrug saylov komissiyalari, ushbu komissiyalar esa, o'z navbatida, 9058 saylov uchastkasi va uchastka saylov komissiyalarini tashkil qilgan. Har ikki darajadagi komissiyalar tarkibiga deputatlari mahalliy Kengashlari tavsiyasiga asosan jamoatchilik orasida obro'-e'tibor qozongan kishilar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasining horijiy davlatlardagi vakolathonalari huzurida ham 44 saylov uchastkasi tuzilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 4 ta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatmoqda. Albatta, har bir siyosiy partiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadn, boshqa partiyalardan farqli jihatlari mavjud. Masalan: O'zbekiston Xalq demokratik

- 1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi yangiliklari www.elections.uz

partiyasiga (qisqacha nomlanishi - O'zbekiston XDP) 1991 yil 1 noyabrdagi partiyaning Ta'sis qurultoyida asos solindi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi ushbu saylovlarga o'z safida 392 mingdan ziyod a'zolari (2014 yil 1 sentyabr holatiga ko'ra) bilan bormoqda. Partiya a'zolarini bevosita birlashtiradigan 10150 ta boshlang'ich tashkilot faolnyat ko'rsatyapti¹.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoyaga muhtoj fuqarolari manfaatlarini ifodalash va himoya qilish. Bular - iqtisodiyotda band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan va ishga joylashishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan odamlar; doimiy ish joyi va muqim maoshga ega bo'lmagan aholi qatlami, boshqa ijtimoiy sohalarning xodimlari va mutaxassislari, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar, pensionerlar hamda imkoniyatlari cheklangan kishilar.

O'zbekiston XDP davlat tomonidan ushbu toifa kishilarining manfaatlarini ko'zlab izchil siyosat olib borilishiga harakat qiladi, ularni o'zining elektorati deb hisoblaydi va saylov kampaniyalarida ularning qo'llab-quvvatlashiga umid bog'laydi;

- katta hayotga kirib kelayotgan yoshlarning kasb-hunar tanlashi, ta'lim olishi va o'qishni bitirganidan keyin ish o'rniga ega bo'lishi uchun adolatli, barcha uchun teng hamda ijtimoiy ochiq shart-sharoitlar yaratish; pensionerlar, mehnatga layoqatsiz nogironlar, ota-ona qaramog'idan mahrum bolalarning hayotiy ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga kafolat beradigan pensiya ta'minoti va ijtimoiy nafaqalar tizimini shakllantirish;

- xalq deputatlari mahalliy Kengashlaridagi partiya guruhlarining hududiy ish o'rinlari yaratish hamda o'rta maxsus va oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash dasturlariga moslashtirilgan xizmat va tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga doir o'rta muddatli investisiya dasturlarini ishlab chiqish hamda

1.I.Bekov.,K.Xamidova.Saylov va siyosiy partiyalar.-T.: O'zbekiston, 2014. B.35.

tasdiqlash borasidagi tashabbuslarini yanada rivojlantirish;

- shu o'rinda mahalliy xomashyodan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va mavjud resurs hamda talab asosida xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratish¹.

Partiya o'zining ommaviy axborot vositalariga ega. Uning markaziy nashrlari:-o'zbek tilida chop etiladigan "O'zbekiston ovozi" gazetasi; -rus tilida chop etiladigan "Golos Uzbekistana» xaftaligi.Partiyaning Internet tarmog'idagi veb-sayti - <http://www.xdp.uz/>

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi (O'zbekiston "Adolat" SDP) 1995 yil 18 fevralda partiyaning birinchi Ta'sis qurultoyida tashkil topdi. O'zbekiston "Adolat" SDP respublikadagi birinchi sotsial-demokratik partiya hisoblanadi. 2013-yil 1-yanvardagi holatiga ko'ra, O'zbekiston "Adolat" SDP o'z safida 93586 ta a'zoni birlashtirgan 3005 ta boshlanqich partiya tashkilotiga ega².

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari quyidagilar:

-kuchli ijtimoiy-huquqiy davlat barpo etish;

-adolatli fuqarolik jamiyatini yaratish; -ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sir qilish;

-jamiyatda ijtimoiy adolat prinsiplarini, inson huquq va erkinliklarini mustahkamlash³.

Ushbu maqsadlar O'zbekiston "Adolat" SDPning o'z faoliyati davomida amal qiladigan prinsiplarga to'g'ri keladi. Bu sotsial-demokratiyaning uch prinsipi: Erkinlik, Adolat va tenglik, Birdamlik.

O'zbekistan "Adolat" SDP tayanadigan asosiy ijtimoiy qatlam bu mamlakatdagi yirik va o'rta sanoat korxonalari, qayta ishlash va to'qimachilik

korxonalarida faoliyat yuritadigan ishchi hamda xizmatchilar. Shuningdek, O'zbekiston "Adolat" SDP elektorati safiga ilmiy faoliyat olib boruvchilar (fan va

1. <http://www.xdp.uz/>

2.I.Bekov.,K.Xamidova.Saylov va siyosiy partiyalar.-T.: O'zbekiston, 2014. B.36

3.<http://www.adolat.uz>

ilmiy sohada shug'ullanuvchi, innovatsion texnologiyalar sohasida band bo'lgan ishchi xodimlar); davlat xizmatchilari va sud-huquq tizimi xodimlari; qishloq va o'rmon xo'jaligida band bo'lgan ishchilar; xizmat ko'rsatish sohasida, shuningdek, kasanachilik sohasida band bo'lgan ishchi-xizmatchilar kiradi. Partiyaning Internet tarmog'idagi veb-sayti: <http://www.adolat.uz>

2008-yil 20-iyun kuni O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining birlashish Qurultoyi bo'lib o'tib, ikki partiya negizida yangi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi tashkil topdi. 2013-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra a'zolar soni 160814 nafar, partiya 4882 ta boshlang'ich tashkilotiga ega¹.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining asosiy maqsadlari: O'zbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy o'zlikni anglashning o'sishi, milliy g'urur, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'usini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish; -o'z safida yurtning vatanparvarlarini birlashtirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini, O'zbekiston manfaatlari hamda uning xalqaro obro'-e'tiborini oshirish yo'lida safarbar etish; -yoshlarni o'z Vatanini hurmat qilish, sevish va u bilan faxrlanish, har qanday sharoitda milliy mustaqillikni, xalqning qadriyatlari, an'analari va urf-odatlarini asrash va himoya qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, uning ma'naviy ehtiyojlari va qiziqishlarini cheklashga bo'lgan urinishlarga qarshi kurashishga hissa qo'shish¹.

Partiyaning oliy rahbar organi Partiya Qurultoyi bo'lib, u kamida besh yilda bir marta chaqiriladi. Partiyaning matbuot nashri "Milliy tiklanish" ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Partiya veb-sayti: [http:// www.mt.uz/](http://www.mt.uz/)

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2003 yil 15 noyabrda bo'lib o'tgan Ta'sis qurultoyida tashkil topgan. 2013 yil 1 yanvar holatiga O'zLiDeP a'zolarining soni 175951 nafarni tashkil etadi. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining boshlang'ich partiya

1.[http:// www.mt.uz/](http://www.mt.uz/)

tashkilotlari soni 7737 tani tashkil etadi².

O`zLiDePning asosiy maqsadlari:

- siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkorlar va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar ochish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning ushbu tabaqasi manfaatlarini himoyalash barobarida uning ertangi kunini ta`minlash;

- partiyaning kuch va imkoniyatlarini boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda mamlakatning milliy manfaatlari va taraqqiyotining strategik istiqbollari javob beradigan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik institutlarining rivojiga keng yo`l ochib berish va demokratik qadriyatlarni xalqimiz, avvalo, yoshlar ongi va hayotiga singdirishga qaratilgan harakat dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

- partiyaning davlat boshqaruvi, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta`sir o`tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi ishtirokini ta`minlash. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan bog`liq muammolarni hal qilish, O`zbekistonning xalqaro obro`yini oshirishda, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni saqlashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlashda faol qatnashish. Yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, o`z elim, o`z yurtim, jon O`zbekistonim, deya g`ururlanib yashash ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo`shish, hap qanday sharoitda mustaqillik yo`li, qadriyatlari, milliy va diniy an`analari, urf-odatlarini qadrlash, shu bilan bipra, barcha millat va elatlar qadriyatlarini kamsitishga yo`l qo`ymaslik, bunday xurujlarga qarshi izchil kurash olib borish;

- o`zi uchun siyosiy platforma deb tanlab olgan liberal- demokratik g`oya va maqsadlarni o`z faoliyati orqali keng omma ongiga singdirish, bu borada safini kengaytirishga yo`naltirilgan har tomonlama chuqur o`ylangan partiya siyosatini targ`ib qilish ishlarini amalga oshirish².

Shu g`oyalarni hayotga tatbiq etishda fidoyilik ko`rsatgan faollarni deputatlikka

1.I.Bekov.,K.Xamidova.Saylov va siyosiy partiyalar.-T.: O`zbekiston, 2014. B.38.

2.www.elections.uz

nomzod sifatida tavsiya etish va saylovchilar ishonchini qozongan deputatlar zimmasiga qonunchilik va ijro hokimiyatida vakillik vazifasini yuklash hamda ular faoliyatini boshqarish.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining S'ezdi partiya oliy organi xisoblanadi va u 3 yilda kamida bir marotaba o'tkaziladi. O'zLiDePning matbuot nashri: "XXI asr" ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Partiyaning veb-sayti ¹

Mamlakatimizda bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilayotgan demokratlashtirish va modernizatsiya jarayonlari, olib borilayotgan tub islohotlar milliy qonunchilikni, jumladan, saylov qonunchiligini yanada takomillashtirishni takozo etdi. Xususan, 2009 yilning 1 iyulidan kuchga kirgan va 2009 yilgi saylovlarni yanada demokratik va oshkora o'tishida muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni buning yorqin misolidir.

Mamlakatimizda aksariyat rivojlangan demokratik davlatlarning qonunchiligi amaliyoti va siyosiy tajribasi singari saylov to'g'risidagi qonun hujjatlarini tobora takomillashtirib, rivojlantirib borish ham tabiiy hol sifatida, shu bilan birga, tadriijiy jarayon sifatida tushuniladi.

Aholining ijtimoiy va siyosiy faolligini har tomonlama oshirish, mamlakatni yangilash va isloh etish, qonunchilik, vakillik hokimiyatini shakllantirish va takomillashtirishga oid amalga oshirilayotgan ishlarda fuqarolarning faol ishtirokiga erishish uchun zarur huquqiy me'yorlar va shart-sharoitlarni yaratish g'oyat muhim rol o'ynaydi. SHu borada qonunchiligimizni bosqichma-bosqich va tizimli ravishda yangilab, takomillashtirib borish bugungi kunda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunida mamlakatimiz Konstitutsiyasiga va 12 ta qonunga o'zgartish hamda qo'shimchalar

1.<http://www.uzlidep.uz>

kiritildi.

Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunga alohida-“**Siyosiy partiyaning vakolatli vakili**” deb nomlangan 17-modda kiritildi. Unga ko‘ra, deputatlikka o‘z nomzodlarini ko‘rsatgan siyosiy partiya Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda o‘z a‘zolari safidan **saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish uchun vakolatli vakilini tayinlash huquqiga ega bo‘lishi** belgilandi¹. Shunday norma O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonuniga ham kiritildi. Siyosiy partiyaning vakolatli vakili nafaqat ovozlarni sanab chiqishda, balki Markaziy saylov komissiyasi tomonidan imzo varaqalarining to‘g‘ri to‘ldirilganini tekshirish jarayonida ham ishtirok etishi mumkin.

Ovozlarni sanab chiqish jarayonida ishtirok etayotgan siyosiy partiyaning Siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari imzo varaqalarining to‘g‘ri to‘ldirilganini Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tekshirilishi jarayonida ishtirok etish huquqiga ega. Ushbu qoida imzo varaqalarining to‘g‘ri to‘ldirilganligini tekshirishda xolislikni yanada kengaytirish, saylovlarning ochiq va oshkoraligini qo‘shimcha kafolatlashni va ularni o‘tkazishda siyosiy partiyalar huquqlarini amalga oshirishni ta‘minlash imkonini beradi.

Ma‘lumki, avvalgi saylovlarda saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek, saylov kuni deputatlikka nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchi, deputatlikka nomzodning ishonchli vakili qatnashish huquqiga ega bo‘lgan. 2009 yilgi saylovda esa, siyosiy partiyaning vakolatli vakili birinchi marta ishtirok etdi. Aytish joizki, qonunchilikda yangi norma o‘z-o‘zidan aks etmaydi. Buning o‘ziga xos sabablari bo‘ladi. “Siyosiy partiyaning vakolatli vakili” deb nomlangan yangi institut joriy etilishiga sabab:

- siyosiy partiyalar o‘rtasidagi siyosiy raqobat halol kechishini ta‘minlash;
- saylovda ochiqlikni, oshkoralikni ta‘minlash.

1.I.Bekov.,K.Xamidova.Saylov va siyosiy partiyalar.-T.: O‘zbekiston, 2014. B.40.

Saylovda ishtirok etish istagida bo'lgan siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlangani e'lon qilingan kundan kamida **olti oy** oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan¹ ro'yxatdan o'tishi bilan bog'liq qoidadagi ushbu muddat **to'rt oyga** qisqartirildi.

Siyosiy partiya saylovda ishtirok etish istagini bildirar ekan, uning o'z maqsadi, g'oyasi, jamiyatda uni qo'llab-quvvatlovchi tarafdorlari bo'lishi lozim. Ya'ni saylovda qatnashishni rejalashtirgan siyosiy partiya ma'lum ma'noda siyosiy kuchga ega bo'lishi kerak. Shuni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasida saylovda ishtirok etish istagida bo'lgan siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan kamida olti oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tishi lozim edi. Siyosiy partiyalarning saylovlarda faol ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida ularning jamiyatdagi o'rni mustahkamlanishi, shuningdek, partiyalar faoliyatiga ishonchning ortishi, ushbu muddatni yanada qisqartirish imkoniyatini berdi va bu amalyotda o'zini oqladi.

Shu bilan birga, siyosiy partiyaning saylovda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi kamida **ellik ming saylovchining imzosini to'plashiga oid qoidadagi** (O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonuni 20-moddasi) **mazkur raqam o'n mingga qisqartirilib, qirq ming** deb belgilandi¹. Ya'ni, 2009 yil va 2014 yilda o'tkazilgan saylovlarda siyosiy partiyalar saylovda ishtirok etish uchun ellik ming emas, balki qirq ming saylovchining imzosini to'plashi kifoya bo'ldi. Bu o'zgartishni ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan shartlarning mantiqiy davomi deb hisoblasa bo'ladi. Mavjud qoida, shartlarni qayta ko'rib chiqish, engillashtirish siyosiy partiyalarning manfaatiga xizmat qilishi uchun belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga

1.O'zbekiston Respublikasining qonuni.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida.- T.: O'zbekiston, 2015. B.19

1.I.Bekov.,K.Xamidova.Saylov va siyosiy partiyalar.-T.: O'zbekiston, 2014. B.40.

saylov to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasidagi **“Saylovchilar yig'ilishi uchastka saylov komissiyalari tomonidan tashkil etiladi”** degan qoida quyidagi norma bilan o'zgartirildi, ya'ni **“Saylovchilar yig'ilishi siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil holda tashkil etiladi. Saylovchilar yig'ilishini o'tkazish joyi va muddati, qoida tariqasida, uchastka saylov komissiyalari bilan kelishib olinadi”**¹. Xuddi shunday norma O'zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida”gi Qonunining 25-moddasiga ham kiritildi. Bu o'zgartish saylovoldi jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Avvalgi saylovlarda deputatlikka nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlari uchastka saylov komissiyasi tomonidan barcha nomzodlar uchun mutlaq teng sharoitlarda tashkil etilishi belgilangan bo'lib, saylov uchastkasida saylovchilar bilan uchrashuv har bir partiyadan ko'rsatilgan nomzodlar uchun bir vaqtda va birga tashkil etilar edi. Uchrashuvda qaysidir partiyaning a'zolari yig'ilganlar sonining ko'pchiligini tashkil etib, o'z partiyasidan ko'rsatilgan nomzodni qo'llab-quvvatlovchi xatti-harakatlarni sodir qilsa, bu boshqa nomzodlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishi yoki e'tirozlar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Shunday holatlar kelib chiqmasligiga, shuningdek, saylovchilar bilan o'tkaziladigan uchrashuvlarni qachon, qanday va qay tartibda belgilash siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil tashkil etilishi mustahkamlandi. Bu, albatta, siyosiy partiyalar faoliyatiga yanada erkinlik huquqini beradi. Saylov uchastkasida bir necha siyosiy partiyadan bir necha nomzodlar bo'lishi mumkinligini, ular o'tkazadigan yig'ilishlar butun saylov uchastkasida tartibli va kelishilgan holda tashkil etilishini tashkil etish maqsadida saylovchilar yig'ilishini o'tkazish joyi va muddati, qoida tariqasida, uchastka saylov komissiyalari bilan kelishib olinishi ta'kidlandi.

Qonunga binoan siyosiy partiyalardan deputatlikka nomzodlarning o'z saylovoldi kampaniyasini yanada faol o'tkazishi uchun sharoit yaratish

1.O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi qonuni yangi tahriri. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, .-T.: O'zbekiston 2003. 9-10 son.

maqsadida Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning ishonchli **vakillari soni 5 nafardan 10 nafarga oshirilishi** ko`zda tutildi.

“O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida”gi Qonunning amaldagi 25-moddasida sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar deputatlikka nomzodlar sifatida ro`yxatga olinmasligi nazarda tutilgan edi. Kiritilgan o`zgartishlar ushbu moddadagi cheklovni faqat **“Sodir etgan og`ir va o`ta og`ir jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar”**gagina taalluqli qilib qo`ydi<sup>1</sup>. Bunday o`zgartishlar “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to`g`risida”gi Qonunga ham kiritildi. Bu o`zgartishning mazmuni shundaki, O`zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar boshqa sohalardagi, jumladan, saylov qonunchiligi bilan hamohangligini ko`rsatadi. Ya`ni, deputatlikka nomzodlarga qo`yiladigan talablar endilikda liberallashtirilib, ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan va uncha og`ir bo`lmagan jinoyat sodir etgan shaxslar ham deputatlikka nomzod bo`lish huquqiga ega bo`lib, bu qonun normasining insonparvarligini ko`rsatadi. Yuqorida aytib o`tilgan o`zgarishlar 2009 yilgi saylovlarda amaliyotda qo`llandi. Bu esa saylov qonunchiligining bosqichma-bosqich takomillashuvining natijasi sifatida namoyon bo`ldi.

Hayot bir joyda to`xtab turmaydi. To`plangan ijobiy tajribaga suyanish, ilg`or texnologiyalar va demokratik tamoyillarning ustuvorligiga erishish maqsadida jamiyatimizni yanada rivojlantirishga qaratilgan zamon oldimizga qo`yayotgan ulkan vazifalarni bajarishda, shubhasiz, saylov tizimini yanada takomillashtirish ham o`ta muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ana shu ma`noda, Prezidentimizning 2010 yil 12 noyabrdagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi” saylov qonunchiligini yanada takomillashtirishning mazmun va

1.O`zbekiston Respublikasining “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida”gi qonuni yangi tahriri. // O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, .-T.: O`zbekiston 2003. 9-10 son.

mohiyatan yangi bosqichini boshlab berdi¹.

Prezidentimizning mazkur konsepsiyada ilgari surgan takliflari asosida 2012 yil 19 dekabrda “Saylov erkinligi yanada taʼminlanishi va saylov qonunchiligi rivojlantirilishi munosabati bilan “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov toʻgʻrisida”gi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida” Qonun qabul qilindi.

“Saylov huquqi erkinligini taʼminlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish, xususan, saylovoldi tashviqotining shakl va usullari tobora turli-tuman va keng miqyosga ega boʻlib borayotganidan kelib chiqib, **birinchidan**, “saylovoldi tashviqoti” tushunchasi va uni oʻtkazish shartlari, turlari, ruxsat etilgan shakl hamda usullari qonunchilik yoʻli bilan belgilab qoʻyildi. Darhaqiqat, saylovoldi tashviqoti har qanday saylov kampaniyasining eng muhim, siyosiy ahamiyatga ega bosqichlaridan biri hisoblanadi, shuning uchun saylov qonunchiligida saylov kampaniyasining ushbu muhim bosqichini amalga oshirish jarayonida deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan normalar kiritildi.

Ikkinichidan, “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov toʻgʻrisida”gi Qonunning 27-moddasiga saylovoldi tashviqotini nafaqat saylov kuni, balki ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin ham olib borish mumkin emasligi toʻgʻrisidagi norma kiritildi. Bunday qoidalar bir qator rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligida keng qoʻllanib kelmoqda. Ushbu normaning qonunchiligimizga kiritilishi saylovchilar uchun qoʻshimcha imkoniyat boʻlib, siyosiy partiyalar va ular tomonidan koʻrsatilgan nomzodlar tomonidan oʻtkazilgan saylovoldi tashviqotlari natijasida olgan maʼlumotlarini sarhisob qilishga hamda qaysi siyosiy partiyaning dasturiga yoki qaysi nomzodga ovoz berish uchun bitta yakuniy fikrga kelib, ovoz berishi uchun etarli vaqt va imkoniyat yaratib beradi. Natijada, saylov jarayonining muhim bosqichi sanalmish

1.Karimov I.A.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi.-T.: Oʻzbekiston, 2010.

ushbu jarayonning takomillashtirilishi saylov natijalari ob'ektivligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 41-moddasi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 38-moddasining **muddatidan oldin ovoz berish tartib-qoidasi** bilan bog‘liq normalariga qo‘shimchalar kiritish orqali muddatidan oldin ovoz berishning aniq sanasi ko‘rsatildi¹. Ushbu qo‘shimchalarning kiritilishi hamda mazkur jarayonni amalga oshirish mexanizmiga aniqlik kiritilishi uchastka saylov komissiyalarining faoliyat yuritishiga qulaylik yaratishi bilan birga, fuqarolarning saylov huquqlari amalga oshirilishi, ularning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishi va saylov qonunchiligi buzilishi mumkin bo‘lgan holatlarga yo‘l qo‘ymaslik borasida navbatdagi qadam bo‘ladi.

To‘rtinchidan, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi qonunlarga “ovoz berish kuniga qadar uch kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoatchilik fikri so‘rovlari natijalarini, saylov natijalari taxminlarini, o‘tkazilayotgan saylov bilan bog‘liq boshqa tadqiqotlarni chop etishga (e‘lon qilishga), shu jumladan, ularni umumiy foydalanishdagi axborot telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘iga) joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi”, degan normaning kiritilishi saylovchilar fikrining chalg‘imasligiga, o‘zlari tanlagan va ma‘qul deb topgan nomzodlariga ovoz berish bilan birga, saylov natijalarining haqqoniyligi va ob'ektivligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, O‘zbekiston Ekologik harakatidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining ochiqqligi va oshkoraligini ta'minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga O‘zbekiston Ekologik harakatining Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo‘yicha konferensiyalarida

1.I.Bekov.,K.Xamidova.Saylov va siyosiy partiyalar.-T.: O‘zbekiston, 2014. B.45.

kuzatuvchilarning ishtirok etish huquqini belgilab beradigan qo`shimcha kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, O`zbekistonda saylovni tashkil etish va o`tkazishning huquqiy asoslari va amaliyoti tobora takomillashib, liberallashib, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqeliklarga mutanosib ravishda rivojlanmoqda, davlat qurilishini bosqichma-bosqich demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning ishtiroki kengayib, mustahkamlanib bormoqda.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng jamiyat hayoti tubdan isloh qilindi. Davlat hokimiyati organlarini shakllantirish tartibi ham demokratik tamoyillar asosida takomillashtirildi. Demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri erkin va adolatli saylov tizimi joriy qilinganligidadir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek "...Hayotimizda demokratiya tamoyillar chuqur ildiz otishini istar ekanmiz, demokratiyaning bosh tamoyili bo'lmish erkin saylovlar masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim"¹.

Mamlakatimiz rahbari yurtimizda huquqiy davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish vazifalarini amalga oshirish jarayoni haqida to'xtalib, shunday degan edi: "Bugun ana shu mustahkam poydevor asosida mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri-milliy taraqqiyotimizning keyingi mantiqiy bosqichi izchil davom etmoqda.

Ushbu bosqichning muhim dasturiy vazifalari - siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdan iboratdir"².

Saylovlar jamiyat siyosiy tizimining vakillik organlarini hamda davlat hokimiyatini shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan muhim qismidir. Saylov tushunchasi mansabdor shaxsning yoki qandaydir organning ovoz berish yo'li bilan tashkil etilishini anglatadi. Shu boisdan saylash uchun bir necha muqobil ob'ekt mavjud bo'ladi yoki, hech bo'lmaganda, muqobil ob'ektsiz saylovda saylashdan voz kechish imkoniyati kafolatlanishi lozim.

Ma'lumki, dunyoning ko'pgina rivojlangan demokratik mamlakatlari davlat qurilishi amaliyotida davlat hokimiyati organlari ikki usulda-tayinlash va saylash

1.Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. T.: O'zbekiston, 1999, B.310.

2.Karimov I.A.. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.: "O'zbekiston, 2007, B.3.

yo'li bilan shakllantiriladi. Bu saylash usuli, qadimdan davlat hokimiyati oliy organlari faoliyatining qonuniyligini ta'minlagan.

Saylov huquqi - fuqarolarning muhim siyosiy huquqlaridan biridir. Yuridik fanda ushbu huquq, ikki turga-ob'ektiv va sub'ektiv saylov huquqlariga bo'linadi. Ob'ektiv saylov huquqi deganda, saylov huquqi normalari tizimi, ya'ni asosiy prinsiplar, tizimlar, tartiblar, jarayonlar va saylovni tashkil qilish kafolatlari tushuniladi.

Sub'ektiv saylov huquqi deyilganda esa davlat tomonidan ma'lum bir shaxsning saylovda qatnashishini (faol bo'lmagan saylov huquqi yoki faol saylov huquqi) ta'minlanishi tushuniladi. Saylov huquqi siyosiy huquq va erkinliklar qatoriga kirgani uchun faqat biror bir davlatga mansub fuqarolargagina beriladi. Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasida saylov huquqiga faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarigina ega bo'ladilar.

Fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda, davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini saylov yo'li bilan shakllantirishda ishtirok etish huquqi eng muhim siyosiy huquqlardan biri hisoblanadi, chunki ushbu huquq orqali fuqarolar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etadilar.

Saylov huquqining asosiy prinsiplari konstitutsiyalarda, aksariyat hollarda esa saylovlar haqidagi maxsus qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanliklari ta'kidlangan, Konstitutsiyamizning 117-moddasi esa aynan saylov tizimiga bag'ishlangan. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi, "Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi va "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari

to'g'risida"gi qonunlar bevosita saylov huquqini tartibga soluvchi qonunlardir.

Shunday qilib, mamlakatimizda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishga va fuqarolik jamiyatini barpo etish borasidagi ezgu maqsadimizni ro'yobga chiqarishning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Shuningdek, Qonunchilik palatasining kundalik faoliyatidagi siyosiy partiyalar o'rtasidagi raqobatni, g'oyalar va dasturlar kurashini faollashtirishga imkoniyat yaratadi hamda muayyan ijtimoiy qatlam manfaatlarini ifodalaydigan partiyalarning o'z saylovoldi dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin: *birinchidan*, saylov hokimiyatni shakllantirish uchun kurashuvchi siyosiy kuchlarning qonuniy yo'l bilan shakllanishiga va sog'lom raqobat muhitining vujudga kelishiga xizmat qiladigan muhim siyosiy-huquqiy jarayondir; *ikkinchidan*, siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashadi; *uchinchidan*, saylov siyosiy partiyalar intiladigan, kutadigan, jiddiy tayyorgarlik ko'radigan voqelik hisoblanadi. Aynan saylov uchun siyosiy partiyalar o'z siyosiy-huquqiy hujjatlari - ustav, faoliyat yoki harakat dasturi, siyosiy platformasini qayta ko'rib chiqadi; *to'rtinchidan*, saylov jarayonida siyosiy partiyalar davlat va jamiyat hayotini yanada rivojlantirishga oid, xalqning ma'lum qatlamini qo'llab- quvvatlovchi sa'y-harakatlar, ilg'or g'oya va qarashlar kurashi orqali jamiyat hayotini demokratik prinsiplar asosida rivojlanishini ta'minlaydi; *beshinchidan*, saylov jarayonida siyosiy partiya saylov orqali o'zining tarafdorlari, elektoratini aniqlash, o'z g'oya va dasturlarining hayotiyligini amalda ko'rishga muvaffaq bo'ladi. Xullas, O'zbekistonda saylovni tashkil etish va o'tkazishning huquqiy asoslari va amaliyoti tobora takomillashib, liberallashib, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqeliklarga mutanosib ravishda rivojlanmoqda, davlat qurilishini bosqichma-bosqich demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning ishtiroki kengayib, mustahkamlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

Rahbariy adabiyotlar

- 1.Karimov I.A. Vatan sajdagoh, kabi muqaddasdir. 3-jild. - T.: O`zbekiston, 1996.
- 2.Karimov I.A. O`zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo`lmaydi. 13- jild. - T.: O`zbekiston, 2005.
- 3.Karimov I.A.. O`zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`li. T.: O`zbekiston, 2007.
- 4.Karimov I.A..O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O`zbekiston, 1999.
- 5.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild.-T.: O`zbekiston, 2000.
- 6.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O`zbekiston, 2005.
- 7.Karimov I.A.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi.-T.: O`zbekiston, 2010.
- 8.Islom Karimov. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma`naviyat, 2008.

Qonun va qonun osti me`yoriy hujjatlar.

- 1.O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O`zbekiston, 1913.
- 2."O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to`g`risida"gi Konstitutsiyaviy qonun.// O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1994.10-son.
- 3.O`zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to`g`risidaQgi Qonuni. // O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997. № 2.
- 4."O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida"gi Qonuni yangi tahriri. // O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 2003. 9-10 son.
- 5.O`zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to`g`risida"gi Qonuni. // O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 2003. № 9-10.

6.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "2002 yil 27 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Referendumi yakunlari bo'yicha qonunchilik faoliyatini asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. - 2002. № 4-5.

7.O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 2002. № 12.

8.O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modehnizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonuni.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2007, 4-son.

9.O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalrni moliyalashtirish to'g'risida" gi qonuni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.2004, 21-son.

10.O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyatining vakillik organlariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining navbatdagi saylovi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni .-T.: O'zbekiston, 2012 yil 23 mart .

11.Qonun hujjatlari to'plami. 2014, 16-son.

12.O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining axborotnomasi. 2010. 1-2-son.

13.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi uchastka saylov komissiyalri raislari uchun eslatmalar.-T.: O'zbekiston, 2015.

O'quv adabiyotlar

1 .Baglay M.V. Konstitutionnoe pravo Rossiyskoy Federasii. - M.: INFRA, 2010.

2.Inson huquqlari.-T.: Sharq, 1997.

3.I.Bekov.,K.Hamidov. Saylov va siyosiy partiyalar.-T.:O'zbekiston, 2014.

4.E.Kanyazov., Sh.Zulfiqorov., O.Turg'unov.O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi va saylov qonunchiligi.-T.: O'zbekiston, 2014.

5.Sh.X.Fayziev.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi: savollar va javoblar.- T.:O'zbekiston, 2007.

- 6.Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari.-T.: Sharq, 1996: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi saylov komissiyalari raislari uchun eslatmalar.-T.; O'zbekiston, 2014.
- 7.J.Boltayev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi: ahamiyati, tashkiliy-huquqiy asoslari.//Buxoronoma, 2015 yil 11 fevral.
- 8.Germaniyaning siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonuni. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. - T.: 2007. -B.8.
- 9.O'zbekistan milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2004. № 7.

Internet saytlari

- 1.<http://www.parliament.gov.uz/uz/history/>
- 2.[http:// www.mt.uz/](http://www.mt.uz/)
- 3.http://elections.uz/uzb/news/markaziy_saylov_komissiyasi_raisi_mabdusalomov_ning_briefmgdagi_maruzasi.mgr
- 4.O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi yangiliklari www.elections.uz
- 5.[http:// www.xdp.uz/54](http://www.xdp.uz/54)
- 6.<http://www.adolat.uz>
- 7.www.elections.uz

Mundarija

Kirish.....	3
I-bob.Saylovlar va siyosiy partiyalar.....	9-22
1.1. Saylov tushunchasi va uning mohiyati.....	9
1.2. Siyosiy partiyalar faoliyatida saylovning mohiyati va ahamiyati.....	13
II-bob. O`zbekiston Respublikasida demokratik saylovlar va siyosiy partiyalar.....	23-56
2.1. O`zbekistonda demokratik saylovlarning huquqiy asosi.....	23
2.2. O`zbekistonda ko`ppartiyaviylik va saylovlar.....	40
Xulosa.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar.....	60

Buxoro Davlat Universiteti Ijtimoiy – Iqtisodiy fakulteti
“Milliy gʻoya, maʼnaviyat asoslari va huquq taʼlimi” yoʻnalishi bitiruvchisi
Rajabova Marhaboning “Demokratik saylovlarda Siyosiy partiyalarning
oʻrni.” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

Tashqi taqriz

Rajabova Marhaboning “Demokratik saylovlarda Siyosiy partiyalarning oʻrni.” mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, toʻrt qism va xulosadan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, uning oʻrganilish daajasi yoritilgan. Mavzuni oʻrganishda maqsad va vazifalar belgilangan. Ishning ilmiy amaliy yangiligi koʻrsatib berilgan.

Ishning birinchi bobida Saylovlar va siyosiy partiyalar haqida fikr yuritiladi.

Ishning ikkinchi bobida Oʻzbekiston Respublikasida demokratik saylovlar va siyosiy partiyalar haqida maʼlumotlar berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida mavzuni oʻrganish jarayonida yuzaga kelgan fikrlar, amaliy takliflar bayon etilgan.

Buxoro Davlat Universiteti Ijtimoiy –Iqtisodiy fakulteti “Milliy gʻoya, maʼnaviyat asoslari va huquq taʼlimi” yoʻnalishi bitiruvchisi Rajabova Marhaboning “Demokratik saylovlarda Siyosiy partiyalarning oʻrni.” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi talabga javob beradi va uni ijobiy baholash mumkin deb hisoblayman.

Tashqi taqrizchi :



Buxoro viloyat Jondor tuman
7- umumiy oʻrta taʼlim maktabi
oʻqituvchisi Asrorova S